

NAZM UL-JAVOHIR

*Alisher Navoiy*

Bu asarni Navoiy Hazrat Alining hikmatlarini ruboiylarda talqin qilgan. Muqaddimada tilga olingan Hazrat Amir – Hazrat Alidir. Asar Husayn Boyqaro «Risola»siga javoban 1485 y.da yozilgan.

## Bismillohir-Rahmonir-Rahim

MUQADDIMA

Har laoliyi mansurakim, fikrat g‘avvosi safo zujjojasini boshig‘a, tartib rishtasini qo‘lig‘a tutub, hamdu sano ummonidin hosil qilg‘ay, ul tengrining shomidadurkim: «Hal oti alal-insona hiyna min ad-dahri lam yakun shayan mazkuran»<sup>[1]</sup> aning kalomi farxunda farjomidin oyatdurur.

Ruboiya:

*Ul tengriki, jovid baqo keldi anga,  
Onchaki baqo judu ato keldi anga,  
Bir do 'stg 'a nukta «Hal ato»<sup>[2]</sup> keldi anga  
Kim, zot aro vasfi «lofato»<sup>[3]</sup> keldi anga.*

Va javohiri manzumakim, xirad sayrafisi basorat aynakin ko‘zig‘a qo‘yub, ixlos nuqudin ollig‘a to‘kub, na’t va duo bozoridin ilikka kivurgay, ul rasul bobinda bo‘la olurkim «Ana madinat al-olam va ala bobiha»<sup>[4]</sup> aning hadisi mo‘jiz nizomidin rivoyate bo‘la olur.

Ruboiva:

*Ul sham'ki, «vazzuho»<sup>[5]</sup> quyosh yuzidur,  
Mazog' bila surma chekilgan ko 'zidur,  
Aning sarikim, o 'zi ulu ul o 'zidur,  
Borcha «inna minka anta minyi»<sup>[6]</sup> so 'zidur.*

«Faqul salavotil-lillahi alayha va ala ashobihi bilisonil ajzvarrizo. Xususan alas-Siddiq val-Foruq                       va                         zun-nurayn                         val-Murtazo»<sup>[7]</sup>.

Ruboiva:

*Avvalg ‘ini fazl durrig ‘a ummon bil,  
Soniysini adl gavharig ‘a kon bil,  
Solisni hayo gulbunig ‘a bo ‘ston bil,  
Robi ‘ni valovat badanig ‘a ion bil.*

Robi'kim, anosiri arbaa tarkibi aning maxzanig'a chahor devor va rub'i maskun chahor devori aning panjai valoyati bila barqaror durur.

Ruboiva:

*Daryoyi ulumiу mehri bo‘rji karam ul,  
Olam tanining joniyu jononi ham ul,  
Sultonи rusul birla qadam barqadam ul,  
Farzandu rafiqу kuyovu ibn-amm ul.*

«Raziollohu anhu va karamallohu vajha»<sup>[8]</sup>.

Ammo ba’d bu sahifaki, «Vash-shams va zuhaho»<sup>[9]</sup> kofuriy safhasidin yoruqroq keldi «Val-layli iza yag‘sha»<sup>[10]</sup> mushki bila nukta tiroz qilg‘uvchi bu hadiqakim, «Janota tahrri min tahtiha an-anhorun»<sup>[11]</sup> din ochug‘roq ko‘rundi» va fokihatun va nahlun va rummo-nun»<sup>[12]</sup> bila sehrpardozliq ko‘rguzuvchi, yo‘q-yo‘qkim, ul sahifa nuktaoroylarining gadoyi va bu hadiqa chamanpiroylarining daryuzanamoyi faqiri haqir, ya’ni Navoiy (sattarallohu uyubahu)<sup>[13]</sup>.

*Rubooya:*

*Ulkim, badanig‘a toki jon bo‘lg‘usidur,  
Jondin badani ichra nishon bo‘lg‘usidur,  
Kilki nechakim nuktafishon bo‘lg‘usidur,  
Har nuktada manqabat ayon bo‘lg‘usidur.*

Azizu niyoz gulchehralari yuzidin bu nav’ parda ochar va alarning zulfi sunbullarin chehralari gullari uzra socharkim, haq subhonahu va taolokim, insomni soyiri maxluqotdin mumtoz va majmui ofarinishg‘a sarvar va sarafroz qildikim: «Va laqad karamno bani Odama»<sup>[14]</sup> karimasi andin muxbirdurur, «Va laqad xalaqno al-insona fi ahsani taqvimi»<sup>[15]</sup> anga mush‘ir. Munga jihat sharafi nutq va maqol erdi va mujibi lutfi kalomi farxunda maol. Har oyina bu javhari jonbaxsh bashar xilqati konidin va bu lului ravonbaxsh inson vujudi ummonidin zohir bo‘lmasa erdi — Iso<sup>[16]</sup> bila markabi arosida ne tafovut va Solih<sup>[17]</sup> bila noqasi o‘rtasida ne mug‘oyarat bo‘lg‘ay erdi.

*Rubooya:*

*So‘zdurki nishon berur o‘lukka jondin,  
So‘zdurki berur jong‘a xabar jonondin,  
Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,  
Bilkim, guhare sharifroq yo‘q andin.*

Bu so‘zkiem, soyiri hayvonot bilan inson orasida dag‘i tafovut aning sababidindur. Turfa bukim, aning orasidag‘a tavofut behaddu farq beadaddurki, «Kalamu an-nosu ala qadri uqluhim»<sup>[18]</sup> andin xabar berur.

Ma’lum bo‘ldikim, so‘zga marotib bor va har martabada hunar ma’yib va ul marotib ijmoli yuzidin idrok va diqqatoyinlari va uqul xurdabinlari qoshida uch qism birla munqasimdurur. Va lekin tafsil hisobida ko‘prak mutafarri’ bo‘lur.

Va avsat so‘z jamoati fusahoyi balog‘atshior va bulag‘oyi fasohatdisor iborati farxunda ishoratlaridurkim, zohir yuzidin sanoye’ oyin va badoye’ tazyin voqe’ bo‘lubtur: «alo qadri marotibihim»<sup>[19]</sup>.

Chun muxtasar maqolotda so‘z marotibi mabositining kushoyishi yo‘q erdi va muhaqqar kalimotda so‘z madoriji rif‘atining oroyishn sig‘mas erdi, har oinakim, ijmol tariqi bila ixtisor qildikim, a’lo va avsat va adno bo‘lg‘ay, a’lo bobida ko‘pdur va so‘z yo‘q deganning ham so‘zi xo‘bdur, ul kundin avvalini maliki qadim kalomida va so‘zi ta’rifida o‘z rasulidin xaloyiqqa payg‘omidurkim, vahy kotiblari lavhan vahyosor o‘z qalami mo‘jiz nigoril bilan: «Faatu bisuratin min mislihi»<sup>[20]</sup> salosi urubdurlar. Va balog‘at bobida yakqalamaliq sadosin sipehr munshisidin oshurubturlar. Va mundin so‘ngra nubuvvat tilining osorikim: «Va ma yantiqu an alho»<sup>[21]</sup> aning shonidadur. Risolat lisonining guftorikim: «Inna hu illo vuju yuqo»<sup>[22]</sup> aning bayonidadurkim, nazmda balog‘at va nasrda fasohat ta’rifida «Inna min ash-she’ri li hikmatun va inna min al-bayonis-sehran»<sup>[23]</sup> buyurubdurur va sehr demaykim, mo‘jiza ko‘rguzubdur.

Mundin so‘ngra hidoyat gulistonining bulbuli hushilhoni va valoyat shakaristonining to‘tiyi shirinzaboni, karomat sarpanjasni bila balog‘at Xaybari eshikin ochqon va karam zo‘rdasti bila karomat bahri laolisini zamona ahli boshig‘a sochqon: ikki zabonaliq kilki zulfiqoridin nishona va ul kilki zabonalar sur’atda duldulidek ravona bu barguzidaning nazmi gavharnishoni va nasri lu’lufishonidur. Andin so‘ngra mashoyix va avliyo («Razi allohu anhu»)<sup>[24]</sup> so‘zi bo‘la olur.

Va adno so‘z xayli avom takallumi, balki soyir unnos tarannumidurkim, ba’zining alfozidin kishiga ma’ni ma’lum bo‘lur va ba’zidin bo‘lmas. Va ba’zi kishining balig‘ ma’niliq alfozini ma’lum qilmas, balki ma’nisiz alfozini surmakdin ham g‘arazi bema’ni erkanin bilmas.

Olloh, olloh! So‘z marotibi tahqiqi ne balo daqiqdurkim, aning silkidagi javohir o‘zin harfi tirziqqa yetkurur.

*Rubooya:*

*Rif‘at aro favqi Arshi a’zam so‘z emish,  
Jonbaxsh dami Masihi Maryam so‘z emish,  
Ma’ni durri anda barcha mudg‘am so‘z emish,  
Ulkim anga ma’ni o’lmag‘ay ham so‘z emish.*

So‘z bog‘i ajab gulistedurkim, anda jonbaxsh atrliq ashjori mavzun va ruhparvar royihalik rayohini gunogun ko‘pdurur va lekin foydasiz xasu xoshoki, balki zararliq xori haloki ham bordur.

*Rubooya:*

*Lekin bu bahor jilva og‘oz qilur,  
Bo‘ston aro gul iguxlari noz qilur,  
Gar zog‘ tikan aro vatan soz qilur,  
Bulbul bori gul bargiga parvoz qilur.*

Chun bu notavonning bulbuli tab'i so'z gulistonin nishiman qildi va andalibi ruhi so'z gulshanin vatan ayladi — gul isi royihasi dimog'ig'a jo'sh soldi va gulbun nasimi jonig'a ancha xurush yuzlandurdikim, xasu xoshok sori ko'z solmadi va tikan osibidin ko'ngliga parvo qilmadi, ya'ni bu zaifi haqirg'a chun inoyati azaliy va saodati lam nazaliy so'z jamilasin marg'ub etti va ma'ni turfasin mahbub, hodiyi tavfiq borchasoz zning tuzrak tariqig'a yo'l ko'rguzdi va ma'niyi taht qiq borchasoz nining rostroq navosin bazmida tuzdi: lojaramkim, ko'prak avqotim Kalomulloh ishtig'oli va aning tafosiri qiyulu qoli bila o'tar erdi, to ahodis daryosig'a g'avs qilur erdim va andin garonmoya gavharlar ilikka kivurur erdim, to Hazrati amir so'zlari ravzalari tomoshosig'a qadam qo'yay erdim va har ravzada «Va hur atnika misol sullu'lu al-maknuna»<sup>[25]</sup> visollaridin bahra topar erdim: bataxsis «Nasr ul-laoliy»<sup>[26]</sup> kim, ul Hazratning valoyat daryosidin chiqqon samin la'lulardir va karomati ummonidin hosil bo'lg'on garonmoya injular. Va abnoyi zamondin va afozili davrondin ba'zidinkim, tab'i qasri raf'i ul-bino<sup>[27]</sup> va ilmi muaskari bade' ul-livo<sup>[28]</sup> bo'lg'ay, andoq ma'lum bo'lur erdikim, bu lu'lularnikim, g'ayrati shohi viloyatining bahri kafi sochibdur, forsiy uslub bila nazm silkiga tortadur. Va ul injularnikim, mag'rib daryosi yoqasig'a to'kulubdur, intizom rishtasig'a chekadur.

Va parishon xotirg'a va oshufta zamirg'a bu orzu ko'p dag'dag'a solur erdikim, turkiy tili bila men ham ul laolini orasta qilg'aymen va bu muddao ko'p taraddud yetkurur erdikim, mo'g'ul uslubi bila men ham ul javohirni pirosta etgaymen, to zamona nav arusi zeboliq libosi ul murassa' bila ziynat topqay va sipehr masnadida anjum shohining sarafrozliq toji ul tarsi' bila mukallal bo'lg'ay, to andin turk ulusig'a ham hazzi shofi va bahrai vofi muyassar bo'lg'ay. Ammo mashaqqat va mehnat kasratidin, balki bizoat va farog'at qillatidin bu murod etagiga ilik ura olmas erdim va qo'lumni bu maqsud zaylig'a yetkura olmas erdim, to bu fayz zamonkim, tarix sekiz yuz to'qson erdikim, «fayz»<sup>[29]</sup> hurufining hosili bo'lg'ay, adam nihonxonasidin ajab ganje vujud jilvagohiga jilvai zuhur ko'rguzdi, latoyifi laoliyi samini bila mamlu va zaroifi yavoqiti otashini bila mashhun va inoyati bahoristonidin g'arib ravza ochildi, maoni sarvu gullari bila ruxparvar maqosidi shamshod va sunbullari birla ruhgustar, yo'q, yo'qkim juzve<sup>[30]</sup>, balki daftare, ne daftarkim, junge, qaysi jungkim, bahre! Juzv desam, qaysi juzvning har harfi mazhari kull bo'la olg'ay. Agar jung desam, qaysi jungda yuz daryo topi libdur va agar daryo desam, qaysi daryoning har durri quyosh gavharig'a ortuqchiliq qilibdur.

*Rubooya:*

*Har safhasi gulbargi tari keldimu de,*

*Yo safhai ruxsori pari keldimu de,*

*Yolam'ai mehri xovari keldimu de,*

*Ul mehrga joni mushtari keldimu de.*

Aql aning idrokidin ojiz bo'lib, bu taronag'a tarannum tuzdikim,

*Rubooya:*

*Ne safhai iqbolu saodatdур bu,*

*Alfozi aro ne zebu ziynatdур bu,*

*Ma'nisida har sori ne diqqatdur bu,*

*Olam eliga mujibi hayratdur bu.*

Va notiqa aning bayonidin mabhut qolib, bu fasonag'a takallum ko'rguzdikim,

*Rubooya:*

*Olloh, Olloh! Bu dag'i inshomu ekin,*

*Yoruhi quds fayzidin iymomu ekin,*

*Insho demay, anfosi Masihomu ekin,*

*Yo qudrati Ollohu taolomu ekin.*

Sipehr munshisidinkim, ikkinchi toram kishvari anga yakqalamadur, qalam tili bila bu nav' sado keldikim,

*Rubooya:*

*Bu xud emas ahli xittai xok so 'zi,*

*Ham buyla biyik yo 'q ahli aflok so 'zi,*

*Bu til bila ermas ezidi pok so 'zi,*

*So 'z demaki, ermas ahli idrok so 'zi.*

Va aflok xatibidinkim, olam eli aning humoyun yuzidin kasbi saodat qilur, bu nido eshitildikim:

*Ulkim bu so 'z isnodi aning zotig 'adur,*

*Davlat yuzi aksi royi mir'oatig 'adur,*

*Har xutbaki ko 'kta davlat isbotig 'adur,*

*Barcha aning alqobi bila otig 'adur.*

Ya'ni, ul kishikim, aning xomai durbori, bu nomani gavharnigor qilibdurur va ul kimsakim, bu nomai gavharnigor durrlari aning homai durboridin sochilibdurur Shahe<sup>[31]</sup>durkim, olam shohlari anga farmonpazirdurlar va Shahedurkim, davron shahansohlari ribqai hukmida asir, xilofatpanohekim, «Inna joila filarzi xalifata»<sup>[32]</sup> tirozidurur, aning qomati iqbolig'a loyiq adolat dastgohekim, «Adl soatin xayrun min ibodati sitiyna sunnatun»<sup>[33]</sup> davojidurkim, aning tax ti falak misoli kitobasig'a muvofiq raiyatnavozekim, «Innal-lohu ya'muru bil-adli val ehsoni»<sup>[34]</sup> lam'adur aning mir'oti lomi' muxolifguzore «Va yanhi an alfuhasho val-munkar va bug'o»<sup>[35]</sup> ashi'adurur aning tig'i qahrida sote', safshikanekim: «Inna fathno laka mubinan»<sup>[36]</sup> debochadurur qazo kilkidin aning shuqqai livosig'a yoqilg'on a'do afganikim: «Va yansuraka Allohu nasran azizan»<sup>[37]</sup> oyati durur qadar xomasidin aning

tig‘i yuziga qazilg‘on fasohat shiorekim: «Aynan tasammo Salsabilan»<sup>[38]</sup> zuloli aning daryoyi hayot tab‘idin rashhai bo‘la olg‘ay, balog‘atdisorekim: «Va qiyл yorzi ablag‘i ma‘hudi»<sup>[39]</sup> aning huqqai pur gavharig‘a takallum vaqtı diqqati kalom bila tatabbu’ qila olg‘ay.

Ruboiya:

*Jism o 'ldi jahon bu jismning joni ham ul,*  
*Taxt o 'ldi falak bu taxt sulton'i ham ul,*  
*Bahr o 'ldi maoni guharafshoni ham ul,*  
*Olam elining shohi suxandoni ham ul.*  
*Ofoq ganji zoti farxundasy bil,*  
*Aflok charog 'i royi raxshandas'i bil,*  
*Jamshedni hashmat ichra sharmandas'i bil,*  
*Donishda Skandarni kamin bandas'i bil.*  
*Har kimki zaif dilnavozi de ani,*  
*Har kimki fitoda chorasozi de ani,*  
*Har kimki g 'amin mahrami rozi de ani,*  
*Shohiki bu nav' Shohi G 'oz'i de ani.*

Ya'ni, zilillohi taolo al-arzin va qahramoni alma' va l-tiyn as-sulton ibn as-sulton  
Abulg'ozzi Sulton Husayn Bahodurxon durkim,

Ruboiya:

*Ko 'p yil ani haq jahonda tutsun, yorab,*  
*Va har ofatdin omonda tutsun, yorab,*  
*Ham hashmati begarona tutsun, yorab,*  
*Ham davlati jovidona tutsun, yorab.*  
*Ofoq muluki xoki roh o 'lsun anga,*  
*Ko 'k masnadi taxti izzu joh o 'lsun anga,*  
*Anjum adadi xaylu sipoh o 'lsun anga*  
*Ul elga yana tengri panoh o 'lsun anga.*

Chun ma'lum bo'ldikim, mundoq shohi falaksarirkim, sipehr munshisi aning avsofi inshoyi bila gardun avroqi lojuvardisin mushkin qilsa, ta'rifining yuzidin birin qilmamish bo'lg'ay, bu yanglig' rangin insho qilibdurur. Va chun shubha qolmadikim, bu nav' xurshedi jahongirkim, oltinchi poyalig' minbar xatibi aning duosining javohiri bila to'quz falak huqqalarini mamlu etib, onchakim kerak mingdin birin ado etmamish bo'lg'ay, bu nav' juzvi sehroyin arog'a ki vurubdurur. Fotihasidin xotimasig'a degincha oyoti kalomi maliki allom bila muzayyan va ahodisi rasuli anom alayhissalotu vas-sallam bila mubayyan va abyoti mo'jiza monandi tarokibidin Zahir<sup>[40]</sup> va Anvariy<sup>[41]</sup> ruhi sharmanda va fiqaroti sehr payvandi salosatidin Vassof<sup>[42]</sup> bila Tabariy<sup>[43]</sup> ravoni sarafkanda.

Chun maqsudig'a mulohaza qildi va mazmunig'a nazar soldi, ul rafi' iboratg'a mazmun hazrati bori shukri ne'matini vojib bilmak va ul bade' ishoratdin maqsud nimayeki, mujibi shukrguzorliqdurur, te'dod aylamak erdi.

Ul jumladin, rub'i maskun salotinig'a sarafrozlig', balki aqolimi sab'a fuqarosig'a navosozliq va bavujudi bu saltanat axloqi hamida va hisoli pisandidakim, alar bila Kayumars va Jamshid zamonidin bu vaqtqa degincha jami' salotini komgoridin mumtoz bo'la olmoq va borcha xavoqini oliy miqdorin imtiyoz topmoq erdi. Nechukkim, bori toalo avomir va navohisining tamshiyati va sayyid ul-mursalin shariat va sunanining taqviyati va adolat ayni partavidin zulm zulumotin iturmak va siyosat «sin»i arrasidin bid'at va fasod daraxti bo'ynin qat'g'a yetkurmak va shujoat qilichi sunidin mulk bo'stonin sarsabz va shodob qilmoq va saxovat sahobi yog'inidin sadafdek og'zi qurug'on sofi zamirlarg'a durri nob sochmoq va havodisi jigarso'z biyobonidag'i so'xtalarni marhamat shodurvoni soyasisig'a tortmoq va navoyibi g'amanduzi namanduz zindonidag'i mehnat anduxtalarni navozish kiryos va ayvoni panohig'a sig'urmoq va notavon raoyog'a har kun shafqati toza va bexonumon g'urbog'a marhamati beandoza zohir qilmoq.

Va soyir bu nav' af'ol va bu yanglig' xisolkim, ham ul nomi va fihраст va kiromi debochada mazkur va masturdururkim, tafsili mujibi tatvil va ta'vili boisi qiylu qol bo'lurkim, borcha mujibi shukri behad va hamdi beadaddurlar.

Va yana ul jumladin, fazlu kamol va husni maqol ahli marqum erdikim, ilmlari daryosidin sipehrning gunbadi obguni hubob va anjumming qatoroti siymobtuni durri nob bo'la olg'ay va fazllari gulistonidin har haqir gulbunni gunbadi nilufari va har kamina sariq gulni xurshedi xovari desa bo'lg'ay va nazmlari jonbaxsh va ravonlig'idin chashmai hayot og'zida suv va nasrlari tafriq va nishotangizlig'idin subhi sodiq labida kulgu va bu jam' arjumand zumrasida va bu hayli bemonand orasida javohir silkida chashm zaxm daf'i uchun shabani tortqondek bu tiyra ro'zgorni ham sig'urub va rayohin dastasidin ayn ul-kamol gazandi man'i uchun xoshokni chekkandek bu xoksorni ham kivurub erdilar. Agarchi javohir aro shaba kirsa alarning qiyamatig'a nuqson bo'lmas va rayohin ichra xoshok tushsa alarning nakhatig'a ziyone yuz qo'ymas.

Ammo gavhar arosiki, javohir silkiga shabani cheksa, bu tartibining muqobalasida shaba g'ayri qullug' ne qilg'ay, balki aning qullug'idin ham ne kelgay. Va guldsta bandeki, rayohin orasida xoshokni sig'urg'ay, bu taqviyati o'trusida xoshokdin g'ayri aftodaliq ne kelgay, balki aning aftodalig'idin ham ne ochilg'ay. Olloh, olloh! Ne yovadururki, dermen: hayhot, hayhot! Ne hazayondurki, ayturmen!

Sahobi mutiri tar doman qatrani manzalatda daryog‘a yetkurubdurur. Sipehri davvor shabnam rashoshasig‘a anjum ziyosi beribdurur va charxi zul-iqtidor tufroq ajzosini quyoshdin o‘tkaribdurur.

Ya’ni, ul Hazrati gardun rif’at avsofin bitirg‘a kotibi lavhi qalam ilgiga olsa, varaq safhasidin o‘zga loyiq ermas, bu xoksori bee’tibor vasfida kofurkirdor varaq uzra mushkbor xoma surubdurur va ul janobi malakiy intisobkim, ta’rifin qilurda aqli kull natiqasi lol bo‘lub, ajzdin takallumga yori; bermas va xoshoki ta’rifida bayozvash safha bayozida axtar monand javohir to‘kubdurur.

*Rubooya:*

*Bir zarrani mehri zarfishon vasf etmish,*

*Bir qatrani bahri bekaron vasf etmish,*

*Bir xastani Isoyi zamon vasf etmish,*

*Bir bandasini shohi jahon vasf etmish.*

*Bir zorki tufrog‘ ayladi g‘am ani,*

*El qadrda ko‘rdi zarradin kam ani,*

*Chekti falak uzra Arshi a‘zam ani,*

*Xursheddek ayladi mukarram ani.*

*Xar xaski ishin charx mazallat qilg‘ay,*

*Tufrog‘ aro poymoli mehnat qilg‘ay,*

*Davlat anga oncha qadru rif’at qilg‘ay —*

*Kim, poya aro tubiyi jannat qilg‘ay.*

Basorat ahli taammul qilsunlar va hamiyat xayli tafakkur aylasunlarki, bu pashshai zaif yuz pili bolo mavhibat muqobalasida ne qila olg‘ay va bu gadoyi nahif ming ganji sipehroso saxovat uzrin netib qo‘la olg‘ay. Agar duog‘a iktifo qilsam, farazanki hayotim ming yil bo‘lsa va har sari mo‘yum o‘rniga ming til va ul tillar borcha duog‘a jori va ul duolar o‘qi istijobat saydig‘a kori, yuz mingdin birining muqobalasida bo‘lmag‘ay. Va agar mahol muddaog‘a yo‘l berib, qo‘lumdin kelsa, aflokning to‘qqiz xonida kavokib javharin va anjum laolisin ul Hazratning boshig‘a sochsam, balki ayog‘ig‘a to‘ksam, ul Hazrat sochqon durrlar oldida ne ko‘rungay va aning himmati janobida bu fulkiyona muhaqqar ne bo‘la olg‘ay.

*Rubooya:*

*Bu fikr g‘am o‘tig‘a kabob etti meni,*

*Bu dag‘dag‘a betoqatu tob etti meni,*

*Bu qayg‘u asiri iztirob etti meni,  
Hosilki, bu andesha xarob etti meni.*

Boqib turay desam hamiyat ruxsat bermas va boqib turmasam hech ish aning chorasi ermas, hayrat ilgida lol va mashaqqat xaylig‘a poymol erdimki,

*Rubooya:*

*Iqbol ionat ibtido qildi manga,  
Aflok guharlarin fido qildi manga,  
Hotifki bashorati nido qildi manga,  
Mazmunini bu nav’ ado qildi manga —*

kim, bu nav’ lu'lulkari, shoh boshining nisorig‘a loyiq bo‘lg‘ay t-ilarsen va andoq injulkarkim, shahanshoh farqining iysorig‘a muvofiq bo‘lg‘ayki, istarsen — karomat ummonidin tila va valoyat bahri bekaronidin ista.

*Rubooya:*

*Gavhar kerak ersa benavoliq ayla,  
Ehsoni bila komravoliq ayla,  
Bahi qafidin aning gadoliq ayla,  
Daryoyi karamg‘a oshnoliq ayla.  
Daryoyi karam kimgaki ogohdurur,  
Bildikki, valoyat ahlig‘a shohdurur,  
Gumrohlarg‘a barandai rohdurur,  
Bu beshada ya ’ni Asadulloh<sup>[44]</sup>durur.*

Hotifi farxundanafas chun ishoratin bildim — Hazrati Amir «Nasr ul-laoliy»<sup>[45]</sup>si tarjimasi azimati qildim.

Ul valoyat daryosining g‘avvosy har laolikim, durrfishon xomasidin nasr qilibdurur va ul hidoyat lujjasining shinosi har durrekim gavharrez iligidin sochibdurur, borchasin bu humoyun Hazratning mehrpartav tojig‘a munosib va bomiqdor ko‘rdum va majmuin bu ro‘zafzun davlatning nasihatshunav qulog‘ig‘a muvofiq va sazovor toptim. Ul sochilgan durrlarni bu Hazratning oliy ismig‘a vazn qaffasig‘a qo‘ydum va to‘kulgan laolini bu maxdumning biyik alqobig‘a nazm rishtasig‘a chektim. Agarchi silki bir-biridin gusista va durari shikasta va bastadurur, umid ulkim, qabul xozinlarining qo‘lig‘a tushgay va ijebat ganjurlarining maxzani qabulig‘a kirgay va burung‘i nozim tarjima qilg‘ondek har nuktani bir ruboiy ado qilildi va har ruboyning to‘rtalasi misra’ini muqaffoi muraddaf

mar'i tutuldi.

Ruboiya:

*Har birisi to 'rt rishtai durrmu ekin?*

*Yolu 'lui daryoyi tafakkurmu ekin?*

*Yo har biridin durrg'a tafoxurmu ekin?*

*So 'z ruhig'a yo 'qsa to 'rt unsurmu ekin?*

*Har birini to 'rt durri shahvor degil,*

*To 'rtunchi falakda mehri zarkor degil,*

*Rub'i maskunda Ka 'bai osor degil,*

*Bayt ul-muqaddasqa to 'rt devor degil.*

Alhamdu lillohi taoloki, bu rub'i maskunda shohning chahor bolish sultanati soldi va chahor bolish sultanat uzra to'rtunchi falakning gird bolishin muttako qildi, ya'ni bu ruboiylar shoh alqobig'a nazm silkida intizom toptilar va bu taronalar shohi xusravi jam joh otig'a sharoiti ixtitomi o'zlarig'a toptilar, chun «Nasr ul-laoliy»ni nazm silkig'a tortildi, otin «Nazm ul-javohir» qo'yuldi.

Ruboiya:

*Yorab, ul javohirlarniki, manzum ettim,*

*Chekkanim anga har nuktaki, ma 'lum ettim,*

*Har nuktaga bir tarona marqum ettim,*

*Ko 'p gavhar aning zimnida maktum ettim.*

*Sen dog'i ulus ko 'ngliga marg 'ub et ani,*

*Oshiqwashlar qoshida mahbub et ani,*

*Tolib qilibon xalqni matlub et ani,*

*Mazmuni kibi boshtin-oyoq xo 'b et ani.*

*So 'z birla Navoiy etma bedod emdi,*

*Ber ma'rifat avroqini barbod emdi,*

*Shah nuktasidin xalqni qil shod emdi,*

*Maqsudni ya 'ni ayla bunyod emdi.*

*Iymoni aningki kufrig ‘a sotir erur,  
Chin nukta demakka ul kishi qodir erur,  
Har kimsaki iymon ishida mohir erur,  
Iymonini bilki, otidin zohir erur<sup>[47]</sup>.*

AXU-KA MAN VA ASOKA FIL-SHIDDATI<sup>[48]</sup>  
*Qardoshing emas ulki qo ‘yub bosh sanga,  
Davlat chog ‘i qilg ‘ay o ‘zni qo ‘ldosh sanga,  
Kim, qildi qatig ‘lig ‘da vafo fosh sanga,  
Ul bo ‘ldi haqiqat ichra qardosh sanga.*

IZHOR UL-G ‘ANYI MINASH-SHUKRI<sup>[49]</sup>  
*Shukr ayladi shiddatda rijo izhori,  
Har mehnat aro daf’i balo izhori,  
Mol istasang et shukru sano izhori-  
Kim, shukr demak qilur g ‘ino izhori.*

ADDIB IYOLAKA TANFA ’UHUM<sup>[50]</sup>  
*Topting chu ayol yaxshiliq yetkurgil,  
O’rgat adabu yaxshi qiliq yetkurgil,  
Har necha adab bo ‘lsa, qatig ‘yetkurgil,  
Xaylingg ‘a adab qilib asig ‘yetkurgil.*

ADAB UL-MAR ’I XAYRUN MIN ZAHABIHI<sup>[51]</sup>  
*Oltin-kumush etma kasb davlat kunidin-  
Kim tortar adab ulusni mehnat tunidin,  
Gar yo ‘qtur adab, ne sud oltun unidin,  
Elning adabi xushroq erur oltunidin.*

ADO’ UD-DAYNN MIN AD-DINI<sup>[52]</sup>  
*Xo ‘b ermas dayn muddaosi elga-  
Kim, qattig ‘erur burch balosi elga,  
Qaytarmoq erur aning davosi elga-  
Kim, dindin erur burch adosi elga.*

AHSIN ILAL-MUSI' I TASUDDUHU<sup>[53]</sup>

*Gar xasm jafosidin sarandoz o 'lg 'ung,  
Doim taabu alamg 'a anboz o 'lg 'ung,  
Sen lutf etib agar navosoz o 'lg 'ung,  
Bu vajh bila anga sarafroz o 'lg 'ung.*

IXVANU HAZA AZ-ZAMANI BAVASIS UL-UYUBI<sup>[54]</sup>

*Dahr eliki keldi ahli nomus bori,  
Qardoshlar erur makr ila mahbus bori,  
Olingda necha qilsa zaminbo 's bori,  
Lekin bordur aybinga jesus bori.*

ISTIROHAT UN-NAFSI FIL-YA'SI<sup>[55]</sup>

*Haqdin durur elga ahli ta 'nid o 'lmoq,  
Navmid o 'lub tolibi tajrid o 'lmoq,  
Chun ya 's durur osudai jovid o 'lmoq,  
Rohat yeturur nafsqa navmid o 'lmoq.*

IXFO' USH-SHADA OIDDUN MIN AL-MURUVVATI<sup>[56]</sup>

*Olam tarki kishiga himmatdin erur-  
Kim, ko 'p shiddat ul sori rag 'batdin erur,  
Nafsingga 'a qayu alamki shiddatdin erur,  
Maxfly tutmoq ani muruvvatdin erur.*

BIRR UL-VOLIDAYNI SALAFUN<sup>[57]</sup>

*Ista ato yo 'lida jon fido qilmoq,  
Qulluq anoga ham ulcha imkon qilmoq,  
Zuhri abad istasang farovon qilmoq,  
Bil oni ato-anog 'a ehson qilmoq.*

BASHSHIR NAFSAKA BIZ-ZAFARI BA'D AS-SABRI<sup>[58]</sup>

*Nafs uyiga sabr ila imorat angla,  
Besabrlig 'in aning sharorat angla,  
Ish sabr sori anga ishorat angla,  
Sabrni zafar sori bashorat angla.*

BARAKAT UL-UMRI FI HUSN IL-AMALI<sup>[59]</sup>  
*Haq yo 'lida har kimga ibodat bo 'lg 'ay,*  
*Yaxshi amal asbobi saodat bo 'lg 'ay,*  
*Gar yaxshi amal kishiga odat bo 'lg 'ay,*  
*Umri bu amal birla ziyodat bo 'lg 'ay.*

BARAKAT UL-MAOLI FI ADO' IZ-ZAKOTI<sup>[60]</sup>  
*Gar molni asbobi najot aylagasesen,*  
*Darveshga sadqasini bot aylagasesen,*  
*Molingdin agar sarfi zakot aylagasesen,*  
*Ko 'prak bo 'lurig 'a iltifot aylagasesen.*

BA' AD-DUNYO BIL OXIRATI TARBAHU<sup>[61]</sup>  
*Dunyo bila necha zebu oro qilmoq,*  
*Ul zeb ila do 'zax o 'ti barpo qilmoq,*  
*Mumkin emas ersa tarki dunyo qilmoq,*  
*Uqbo bila xushdur ani savdo qilmoq.*

BUQO' UL-MAR'I MIN XASHYAT-ILLOHI QURRATU AYNII<sup>[62]</sup>  
*Har kimki xushu' uyini maskan qilg 'ay,*  
*Olam sijinin haq anga ma 'man qilg 'ay;*  
*Haq vahmidin ulki yig 'lamoq fan qilg 'ay,*  
*Ul ashk aning ko 'zini ravshan qilg 'ay.*

BATN UL-MAR'I ADUVVAHU<sup>[63]</sup>  
*Har kimgaki ko 'p taom yemak fandur,*  
*Bilgilki, najosatqa tani maskandur,*  
*Qorning bila do 'st bo 'lmasang ahsandur,*  
*Nevchunki er o 'g 'lig 'a qorin dushmandur.*

BUKRAT US-SABTI VAL-XAMISI BARAKATUN<sup>[64]</sup>  
*Ko 'p keldi zamonaning mukarrar subhi,*  
*Barakat duridan topmadi zevar subhi,*  
*Ko 'rguzmadi oni charxning har subhi,*  
*Juz shanbau panjshanbai anvar subhi.*

BALO UL-INSONI MIN AL-LISONI<sup>[65]</sup>

*So 'zidin kishikim g‘amu balo hosildur,  
Har nuktada tili desa balo doxildur,  
Besirfa degan kishiga tili qotildur,  
Alqissaki, kimsaning balosi tilidur.*

BARRIK LO TUBTILHU BIL-MANNI<sup>[66]</sup>

*Juz judu saxo uyini manzil qilma,  
Imsokni saxo yuziga hoyil qilma,  
Qil yaxshiliqu demakni doxil qilma,  
Minnat bila yaxshilig‘ni botil qilma.*

BASHOSHAT UL-MAR’I ATIYMATUN-SONIYYATUN<sup>[67]</sup>

*Ehsonki birovga siyratu son keldi,  
Ashkoli spehr oldida oson keldi,  
Ehson har necha zebi inson keldi,  
Ehsonda tarab ikinchi ehson keldi.*

TAVAKKAL ALALLOHI YAKFIKA<sup>[68]</sup>

*Har ishdaki haqqa multamas bo ‘lg‘usidur  
Ish sa ‘b esa tengri choraras bo ‘lg‘usidur,  
Har yo ‘lgaki ko ‘nglungga havas bo ‘lg‘usidur,  
Tengriga tavakkul sanga bas bo ‘lg‘usidur.*

TA ’XIR UL-ASR’ATI MIN AL-IQBOLI<sup>[69]</sup>

*Ne ishki yomonlig‘ o ‘ldi ta’siri aning,  
Yo ‘q dardu nadamdin o ‘zga tavfiri aning,  
Muqbil agar istar o ‘lsa tadbiri aning,  
Iqboldurur kishig‘a ta’xiri aning.*

TADORAKA FI OXIR IL-UMRI MO FOTAKA FI AVVALIHI<sup>[70]</sup>

*Qulluq ishida qismati avqot ayla,  
Chun umrg‘a e’timod yo ‘q bot ayla,  
Umr avvalida hisobi mofot ayla,  
Umr oxirida qazoyi mofot ayla.*

TAKOSUL UL-MAR’I FIS-SALOTI MIN DA’F IL-IYMONI<sup>[71]</sup>

*Har kimki erur tamom tavakkul anda,  
Bo ‘lg‘usi namoz betaammul anda,  
Har kimki ayon etar tag‘oful anda,  
Iymon za’fidur takosul anda.*

TAFFALA BIL-XAYRI TANULHU<sup>[72]</sup>

*Bas kimsaki mehnat ichra soldi g‘am ani  
Kim, yaxshi tafa’ul ayladi xurram ani,  
Foleki yomondurur aylagil mubham ani,  
O‘zfolini yaxshikim toparsen ham ani.*

TAG‘AFAL ANIL-MAKRUHN TAVFIRUN<sup>[73]</sup>

*Gar dahr elidin yetishsa makruh sanga,  
Albatta kerak bo‘lmasa anduh sanga,  
Ul ishda tag‘oful o‘lsa anbuh sanga,  
Ortar tavqir ko‘h to ko‘h sanga.*

TARAHUMA AL-AYODIYA ALO AT-TA’OMI BARAKATUN<sup>[74]</sup>

*Mehmonning mehrin asrag‘il jon ichra,  
Ne‘mat qalin ayla xoni ehson ichra,  
Har necha adad o‘ksuk esa non ichra,  
Barakat yeturur qalin ilik xon ichra.*

TATRUF BITARK IZ-ZUNUBI<sup>[75]</sup>

*Ko‘nglungga xirad yo‘lin padidor ayla,  
Bu naqdqa joningni xaridor ayla,  
Har ishda xiradni o‘zungga yor ayla,  
Jurmung tarkidin xirad izhor ayla.*

TAVOZU’ UL-MAR’I YUKRIMUHU<sup>[76]</sup>

*Ta’zimda ulki ehtimomi bo‘lg‘ay,  
Ul mujibi izzu ehtiromi bo‘lg‘ay,  
Har kimki tavozu’ amri komi bo‘lg‘ay,  
Ul fe'l ila xalq aro kiromiy bo‘lg‘ay.*

SALOSUN MUHKOTUN BUXLUN VA HAVAN VA UJBUN<sup>[77]</sup>

*Uch fe'l erur kishiga qotil oxir,*

*Qotilliq aro zahri halohil oxir,*

*Buxl angla birin.birin havo bil oxir,*

*Qil ujbni ham alarg 'a doxil oxir.*

SULS UL-IYMONI HAYO'UN VA SULSUHU VAFOUN VA SULSUHU SAXO'UN<sup>[78]</sup>

*Uch qism ila iymong 'a bino fahm ayla,*

*Avvalg 'isini aning hayo fahm ayla,*

*Ikkinchisini dag 'i vafo fahm ayla,*

*Uchunchini bilmasang, saxo fahm ayla.*

SULMAT UD-DINI MAVT UL-ULAMO'I<sup>[79]</sup>

*Ilm o 'ldi sharaf din aro har oyning 'a,*

*Bormoq bo 'lur o 'rgangali ani Ching 'a,*

*Dinda ulamo mujib erur tazying 'a,*

*O 'lmoqlid alarg 'a raxna soldi ding 'a.*

SULMAT UL-HIRSI LO YASUDDUHO ILLOT-TUROBI<sup>[80]</sup>

*Hirs o 'lsa qanoat o 'tig 'a yoq ani,*

*Ya 'niki adam rishtasig 'a toq ani,*

*Ne raxnaki hirs aylagay boq ani,*

*Mahkam qilg 'ay magarki tufroq ani.*

SUBOT UL-MULKI FIL-ADLI<sup>[81]</sup>

*Adl aylaki, ul xalq hayoti bo 'lmish,*

*Xush ul kishikim, adl sifoti bo 'lmish,*

*Ham mulk bila adl jihoti bo 'lmish,*

*Ham adl bila mulk saboti bo 'lmish.*

SAVOB UL-OXIRATI XAYRUN MIN NA 'IYMID-DUNYO<sup>[82]</sup>

*Dunyoki o 'tar yurt misoli bo 'lg 'ay,*

*Anda ne iqomat ehtimoli bo 'lg 'ay,*

*Uqbo xabariki loyazoli bo 'lg 'ay,*

*Xushroq bu naimdinki xoli bo 'lg 'ay.*

SUN IHSONAKA BILO-I'TIZORI<sup>[83]</sup>

*Ehsonki qilursen iftixor aylab ani,  
Olamda uluq ish e'tibor aylab ani,  
Hech aylama elga girudor aylab ani,  
Qilg'il iki oncha e'tizor aylab ani.*

SUBOT UN-NAFSI BIL GIZO'I VA SUBOT UR-RUHI BILG'INO'I<sup>[84]</sup>

*Ko'z topti jamol dirlrabo birla sabot,  
Ko'ngul dog'i vasli jonfizo birla sabot,  
Nafs uylaki kasb- etti g'izo birla sabot,  
Ruh ayladi jonfizo g'ino birla sabot.*

SANO' UR-RAJULI ALA MU'TIYHI MUSTAZIYDUN<sup>[85]</sup>

*Kufron bila har kimki o'zi dun qilg'ay,  
Kamlik sori ne'matini vojun qilg'ay,  
Chun shukrga o'z tilini maqrung qilg'ay,  
O'z ne'matin ul shukr ila afzun qilg'ay.*

JUD BIMO TAJIDU SADAQ AL-AMRI<sup>[86]</sup>

*Maydoni saho ichra jalodat ko'rguz,  
Topqonni berur amrig'a odat ko'rguz,  
Buxl aylasa, nafsingg'a adovat ko'rguz,  
Har nimaki topilsa saxovat ko'rguz.*

JAHD UL-MUQILLI KASIRUN<sup>[87]</sup>

*Har kimdaki dahr ibtilosi ko'pdur,  
Yo'q bok agar haqqa rizosi ko'pdur,  
Borliqda agar dahr jafosi ko'pdur,  
Yo'qsizda vale foqa balosi ko'pdur.*

JAMOL UL-MAR'I FIL-HILMI<sup>[88]</sup>

*Har kimdaki dahr ichinda donoliq erur,  
Hilm ila ish anga majlisoroliq erur,  
Oyini tahammulda tavonliq erur,  
Yuk chekmak uyla kishiga zeboliq erur.*

JALIS US-SU’I SHAYTONUN<sup>[89]</sup>

*Yaxshiliqdin topsa nishon hamsuhbat,  
Berur sanga osoyishi jon hamsuhbat,  
Chun bo ‘ldi malak naf’rason xamsuhbat,  
Shayton sangakim durur yomon xamsuhbat.*

JAVLAT UL-BOTILI SOATUN VA JAVLAT UL-HAQQI ILAS-SOATI<sup>[90]</sup>

*Botilki chaqilsa barqi toboni aning,  
Ko ‘zini yumub ochquncha imkoni aning,  
Haqqim yo ‘q naf’ ichinda poyoni aning,  
Bo ‘lg‘usi qiyomatqacha javloni aning.*

JALIS UL-MAR’I MISLUHU<sup>[91]</sup>

*Yo ‘q olam ichinda fardliq mehnatidek-  
Kim, kimsaga qilsa yorliq nisbatidek,  
Bo ‘lg‘usi xisolli yorining xislatidek,  
Bordur kishining chu fe ‘li hamsuhbatidek.*

JAVDAT UL-KALOMI FIL-IXTISORI<sup>[92]</sup>

*Har kisaki so ‘z demak shiorida durur,  
Ma ’ni guli nutqining bahorida durur,  
So ‘z kim desun ulki ixtiyorida durur,  
So ‘z yaxshilig ‘i chu ixtisorida durur.*

JALIS UL-XAYRI G‘ANIMATUN<sup>[93]</sup>

*Yoreki tegar birovga ozori aning,  
Aql oldida tengdurur yo ‘qu bori aning,  
Yoreki erur hamida atvori aning,  
Ko ‘rmakka g‘animat o ‘ldi ruxsori aning.*

JUD BIL-KASIRI VA QONI’ BIL-KALILI<sup>[94]</sup>

*Judeki xirad buyursa tobe ‘bo ‘lg‘il,  
Nafs aylasa buxl marig ‘a mone ‘bo ‘lg‘il,  
Ozu ko ‘p aro bir so ‘zumga some ‘bo ‘lgil,  
Ko ‘p bergilu ozg ‘a lek qone ‘bo ‘lgil.*

JOLAS AL-FUQAROI TAZDAD SHUKRAN<sup>[95]</sup>

*Jahl ahli bila kimgaki ulfat bo 'lg 'ay,  
Ul ulfati ichra yuz ming ofat bo 'lg 'ay,  
Faqr ahli bila angaki suhbat bo 'lg 'ay,  
Shak yo 'qli, ziyoda shuki ne 'mat bo 'lg 'ay.*

JALLA MAN LO YAMUTU<sup>[96]</sup>

*Gardunki xaloyiqqa vafosi yo 'q aning,  
Javr ichra kichik-uluuqqa posi yo 'q aning,  
Har kimki kichik bo 'lsa baqosi yo 'q aning,  
Sen oni uluq bilki, fanosi yo 'q aning.*

HILM UL-MAR 'I AVNUHU<sup>[97]</sup>

*Har kimki ishi tahammul izhori erur,  
Albatta muqorin anga kirdori erur,  
Yo 'qkim madad ichra ulu bu yori erur —  
Kim, hilmi tahammuli madadgori erur.*

XULY IR-RIJOL IL-ADABU<sup>[98]</sup>

*Zeval kishiga ne toju ne afsar bil,  
Ul zevar adab birla hayo darxar bil,  
Har kimki adabsizdur, ishin abtar bil,  
Alqissa eranlarga adab zevar bil.*

HAYO UL-MAR 'I SATRUHU<sup>[99]</sup>

*Avji sharafuzra oftob o 'ldi hayo,  
Bo 'stoni saodatg 'a saxob o 'ldi hayo,  
Mazmum xasoilga hijob o 'ldi hayo,  
El aynig 'a go 'yoki niqob o 'ldi hayo.*

HAMUZOT IT-TA 'OMI XAYRUN MIN XAMUZOT IL-KALOMI<sup>[100]</sup>

*Gar zahr bila kishiga kom o 'lsa achig ',  
Yuz onchaki so 'z bila mudom o 'lsa achig ',  
Har necha mazoq aro taom o 'lsa achig ',  
Xushroqdurur andinki, kalom o 'lsa achig '.*

HIDDAT UL-MAR ’I TUHLIKUHU<sup>[101]</sup>

*Tab’ ichra erur tahammulomizligi,  
Andin ortuqliki vahshatangizligi,  
Jon qasdi etar kimsa g‘azabrezligi,  
Alqissa, kishini o‘lturur tezligi.*

HARRAM AL-VAFOU LIMAN ASLALAHU<sup>[102]</sup>

*Beasl xaloyiqqa safo keldi harom,  
Har ishki erur g‘ayri jafo keldi harom,  
Ham javr asl el aro keldi harom,  
Ham asli yo‘q el ichra vafo keldi harom.*

XUSNUL-LULQI G‘ANIMATUN<sup>[103]</sup>

*Badxo ‘yki, o‘z qilg‘ann rahmatdur anga,  
Orom xaloyiq sori tuhmatdur anga,  
Kim xo ‘yi yamon bo ‘lsa, mashaqqatdur anga,  
Kim xo ‘yi aning yaxshi g‘animatdur anga.*

HIRFAT UL-MAR ’I KANZUHU<sup>[104]</sup>

*Kosib kunji kafı zar olg‘inchi erur,  
Ikki qo ‘li mezoni diramsanji erur,  
Kim bo ‘lsa hunarsiz ishi-o‘q ranji erur,  
Bu vajh ilakim, hunari ganji erur.*

XAVF ALLOHU TA’MANA G‘AYRUHU<sup>[105]</sup>

*Haqdin emin bo ‘lubki jon topqaysen,  
G‘ayridin xavfi begaron topqaysen,  
Andinki rajoyi jovidon topqaysen,  
Xavf aylaki, g‘ayridin amon topqaysen.*

XAYR UL-ASHOBI MAN YADULLUKA ALAL-XAYRN<sup>[106]</sup>

*Ashob arosida ani bil sharlik-  
Kim, shar sori anlagay dalilovarliq,  
Yaxshi ul erurki, aylabon bovarliq,  
Qilg‘ay sanga yaxshilik sori yovarliq.*

XOLAF NAFSAKA TASTARIHU [107]

*Nafs amrida har nechaki tolping 'aysen,  
Ko 'p garchi butunluk tilasang, sing 'ayseng  
Kom istayu necha elga yoling 'aysen,  
Nafsingg 'a xilof aylakim, ting 'aysen.*

XALIL UL-MAR'I DALIL UD-DINIHI [108]

*Har kimki, nazari sham ' yaqin keldi anga,  
Din ahli gadoyi xo 'shachin keldi anga,  
Qil anga nazarki, hamnishin keldi anga-  
Kim, sohibi-o 'q dalili din keldi anga.*

XULUV UL-QALBI XAYRUN MIN MALA' IL-KIYSI [109]

*Har nechaki kimsa faqr pomoli esa,  
G 'am yo 'qtur agar safo ko 'ngul oliv esa,  
Gar kissa aro to 'la jahon moli esa,  
Xushroq andin agar ko 'ngul xoli esa.*

XULUS UL-VADDI MIN HUSN IL-AHDI [110]

*Ahdingning agar bor esa mezoni durust,  
Asra ani iqbol nigahboni durust,  
Har do 'stki, so 'z ichra desang oni durust,  
Xolisdur agar bor esa paymoni durust.*

XAYR UN-NISO IL-VADUD IL-VALUDI [111]

*Xayli zuafoki bevafoliq fanidur,  
Hiyla uyi ul guruhnning maskanidur.  
Yaxshisi desa kishi ko 'p sevganidur,  
Ko 'p sevs va ko 'p tug 'sa ahsanidur.*

XAYR UL-MOLI MO ANFAQA FI SABIL IL-LOHI [112]

*Molingki erur, komu havo yo 'lida xarj  
Jomi mayu lahni jonfizo yo 'lida xarj,  
Bordur yamon aylamak riyo yo 'lida xarj,  
Yaxshisi erur, bo 'lsa xudo yo 'lida xarj.*

DAVO O ‘L-QALB IR-RIZOU BIL-QAZOI<sup>[113]</sup>  
*Har kimga livoyi charx farsud kerak,*  
*Ko ‘nglida sipehr dardi mavjud kerak,*  
*Har kimgaki, ko ‘ngli dardi nobud kerak,*  
*Har neki qazodin o ‘lsa, xushnud kerak.*

DO’UN-NAFSI IL-HIRSU<sup>[114]</sup>  
*Gar aytur esang, bo ‘lay juvonmard oxir,*  
*Qil hirsni faqr yo ‘lida gard oxir,*  
*Hirs o ‘tidin bo ‘lma dardparvard oxir-*  
*Kim, nafsg ‘a hirsdin yetar dard oxir.*

DO’UN-NAFSI VA NA ’L-HIRSU<sup>[115]</sup>  
*Hirs ofatini nafs havosi bilg ‘il,*  
*Qo ‘ymoq ani nafs muddaosi bilg ‘il,*  
*Nafsingg ‘a alam hirs balosi bilg ‘il,*  
*Kechmak mundin aning davosi bilg ‘il.*

DORI MAN JAFOKA TAHJILAN LAHU<sup>[116]</sup>  
*Har kimki, seni ravo ko ‘rar shiddatig ‘a,*  
*Sen ko ‘prak ishtig ‘ol et aning xizmatig ‘a,*  
*Gar tutmas ul harifo ‘z xislatig ‘a,*  
*Sen lek madori qil aning xijlatig ‘a.*

DALILU AQL IL-MAR ’I QAVLUHU<sup>[117]</sup>  
*Odamki, demak bila kiromiyduru bas,*  
*So ‘z durri ishining intizomiduru bas,*  
*Sihat onchaki, ahli aql komiduru bas*  
*Aqlig ‘a dalil aning kalomiduru bas.*

DALILU ASL IL-MAR ’I FA ’LUHU<sup>[118]</sup>  
*Kimni tilasang bilay, maqolin angla,*  
*Aslin desang anglayin, fiolin angla,*  
*Kirdorig ‘a boqib, asl holin angla,*  
*Aslig ‘a dalil aning xisolin angla.*

DAVOM US-SURURI BIRUYAT IL-IXVONI<sup>[119]</sup>

*Qardoshlar ochilmasunkim oralari,  
Farrux bo 'lsun kavkabi sayyoralarri,  
Vasl ila yiroqliqlarining choralari-  
Kim, keldi farax mujibi nazzoralari.*

DAVLAT UN-NAVODI OFAT IL-RIJOLI<sup>[120]</sup>

*Muqbillar ishida ko 'p latofat bilgil.  
Idborda ul el aro masofat bilgil,  
Nokaslar ishin ayni kasofat bilgil,  
Davlatlarini eranga ofat bilgil.*

DAYN UL-MAR 'I HUZNUHU<sup>[121]</sup>

*Har kimsakim, burch ranjining darhamidur,  
G 'amning yoriyu dardning hamdamidur,  
Ko 'rmaklik vomxohni motamidur,  
Alqissaki, burch odamining g 'amidur.*

DAVLAT UL-MULUKI FIL-ADLI<sup>[122]</sup>

*Shahubbahatu hashmatidur adli bila,  
Iqbol dog 'i shavkat erur adli bila,  
Olam eli amniyatidur adli bila,  
Sultonlarning davlatidur adli bila.*

DINOR USH-SHAJIHI HAJARUN<sup>[123]</sup>

*Jay' etmak azalda topti taqsim baxil-  
Kim, etmadi siym elga taslim baxil,  
Chun xarj qilur chog 'da kurar biym baxil,  
Tosh hukmidadurki, jam ' etar siym baxil.*

DUM ALA KAZAM IL-G 'AYZI TAHMUDU AVOQIBAKA<sup>[124]</sup>

*Tavrungda gunah kechurmokin mavjud et,  
Cud qilibon bu nav ' behad sud et,  
El g 'ussasini singurmokin maqsud et,  
Bu sheva bila oqibating mahmud et.*

ZARR UT-TOG‘I FI TUG‘YONIHI<sup>[125]</sup>

*Farmon xatin aylagil raqam jon ichra,  
Tug‘yon raqamini tashla nayron ichra,  
Tog‘eki, o‘zin solmadi farmon ichra,  
Qo‘y nofarmon xalqni tug‘yon ichra.*

ZANOBUN VOHIDUN KASIRUN VA ALFU TO‘ATIN QALILI<sup>[126]</sup>

*Gar emas esang zuhdg‘a damsoz hanuz,  
Fisq ichra qilur esang taku toz hanuz,  
Ko‘p angla bir o‘lsa jurm nosoz hanuz,  
Gar ming o‘lsa toat erur oz hanuz.*

ZIKR UL-AVLIYOO‘I TUNZIL UR-RAHMATA<sup>[127]</sup>

*Xalq ichra haq avliyosini bil rahmat,  
Ul xayldin o‘ldi elga moyil rahmat,  
Zikr aylab alarni hosil rahmat-  
Kim, zikrlari ayladi nozil rahmat.*

ZULL UL-MAR‘I FIT-TAMA‘I<sup>[128]</sup>

*Har kimki, tama‘durur giriftorlig‘i,  
Ne sud anga ahli saxo yorlig‘i,  
Izzat bermas naqdu diram borlig‘i-  
Kim, bo‘ldi tama‘din kishining xorlig‘i.*

ZAVAQAT US-SALOTINI MUHRIFAT USH-SHAFATAYNI<sup>[129]</sup>

*Shah xoni g‘amin qo‘yki, tarabni o‘rtar,  
Issig‘oshi turku arabni o‘rtar,  
Topmog‘lig‘ani ahli adabni o‘rtar,  
Totmog‘lig‘ani xud ikki labni o‘rtar.*

DALIL UL-FAQRI G‘ARIZUN INDAL-LOHI<sup>[130]</sup>

*Hargiz bo‘lmas johu diram zori aziz,  
Jon naqdi berib siym xaridori aziz,  
Xalq ollidadur faqr talabgori aziz,  
Haq ollida faqrning erur xori aziz.*

ZIKR USH-SHABOBI HASRATUN [131]

*Qariki erur, ko 'ngliga sinmoq hasrat,  
Jonig 'a yigitlikni qilinmoq hasrat,  
Har ishda yigitlarga yolinmoq hasrat,  
So 'z ichra yigitlikni sog 'inmoq hasrat.*

ZALOQAT UL-LISONI ZOT UL-MOLI [132]

*Sokit bo 'lur ofoq aro hol iyasi,  
Oyini fanoda turfa ahvol iyasi,  
Mol o 'lsa yaqin bilki emas mol iyasi,  
Nevchunki aning lek erur mol iyasi.*

ZIKR UL-MAVTI-JALO' UL-QULUBI [133]

*Har kimki, o 'lum so 'zin demak fan aylar,  
Uz holig 'a bu so 'z bila shevan aylar,  
Tavrini suluk ichinda ahsan aylar-  
Kim, ruhni o 'lmak so 'zi ravshan aylar.*

RU'YAT UL-HABIBI JILO' UL-AYNI [134]

*Har kimki, muhabbat uyini maskan etar,  
Ko 'ngliga habib ko 'yini gulshan etar,  
Ko 'z kasbi ziyo do 'st yuzidin fan etar,  
Mahbub yuzin ko 'rmagi ko 'z ravshan etar.*

RO'A ABOKA YURO'UKA-BIUKA [135]

*Farzand ato quillug 'in chu odat qilg 'ay,  
Ul odat ila kasbi saodat qilg 'ay,  
Har kimki, atog 'i ko 'p rioyat qilg 'ay,  
O 'g 'lidin anga bu ish siroyat qilg 'ay.*

RAFOHIYAT UL-AYSHI FIL-AMNI [136]

*Davron aro kimsa ranj paymudalig 'i,  
Bushmas gar emas farog 'kambudalig 'i,  
Noamnliq o 'ldi xalq farsudalig 'i.  
Amn ichra bo 'lur maosh osudalig 'i.*

RUTBUT AL-ILMI ALAR-RUTBATI [137]

*Haq berdi chu elga ilm sarmoyasini,  
Xurshed uza soldi ulamo soyasini,  
Olg'anlar aning rutbasidin voyasini,  
Bildik boridin biyik aning poyasini,*

RIZQUKA YUATLUBKA FASTARIX [138]

*Aylar chu sukut topsa til osoyish,  
Ham bo 'lmasa dastranj el osoyish,  
Ro 'zini tilar tarkini bil osoyish,  
Ro 'zi tilar ermish seni qil osoyish.*

RASUL UL-MAVT IL-VAL ODATU [139]

*Tanga hayot jomidur komrason,  
Bo 'l tang'a nishot komidin jomrason,  
Jong'a ham o 'lumdin burun orom rason  
Kim, tug'moq erur o 'lumga payg'om rason.*

RA'UNOT IN-NAFSI TA'ABUHO [140]

*Ishdur sanga haq-sori qadamfarsoliq,  
Qilma tilabon lahv jahonpaymoliq,  
Ko 'p nafsga bermagil jamoloroliq-  
Kim, ranjga solur ani ko 'p ra'noliq.*

RO' AL-HAQQA INDI G'ALABOT IN-NAFSI [141]

*O'rmoqta amal zar'i fano dosini tut.  
Iblis bu yo 'lda aql vasvosini tut,  
Haq yo 'lida nafsingg'a o 'lum kosini tut,  
Nafsing g'alaboti vaqtি haq posini tut,*

RIFQ UL-MAR'I DALILU AQLIHI [142]

*Kim aql yo 'lida tutsa ma'vo oxir,  
Tong yo 'q el ichinda bo 'lsa dono oxir,  
Rifq aylamagi har ishta avlo ohir-  
Kim, aql dalilidur madoro oxir.*

ZIN UR-RIJOLI MAVOZI YAFHUM [143]

*Mahram. tilasang sidq ila guftorig‘a boq,  
Pir istar esang suluku atvorig‘a boq,  
G‘avr ayla kishiga dog‘i kirdorig‘a boq,  
Ne qilsang aning shonida miqdorig‘a boq.*

ZIR UL-MAR’I ALA QADRI KIROMIHI [144]

*Yoringni tonir ishta mahorat ayla,  
Diqqat bila holig‘a basorat ayla,  
Mukrim esa izhori bashorat ayla,  
Judig‘a ko‘ra oni ziyorat ayla.*

ZAVOYO-AD-DUNYO MASHHUNATUN BI-R-RAZOYO [145]

*Gardunki, aning javfida mamlu g‘amdur,  
Har bir g‘amida yuz ibtilo mudg‘amdur,  
Dunyodaki, el navhasi zero bamdur,  
Har zoviyasi aning to‘la motamdur.*

ZIYORAT UL-HABIB IL-HARRO’ UL-MUHABBATI [146]

*Har kimki habibing o‘lsa evrul boshig‘a,  
Mahv o‘l yuzig‘a, jonni fndo qil qoshib‘a,  
Tosh ursa, ravoningni tufayl et boshig‘a,  
Tajdidi muhabbat angla bormoq qoshib‘a.*

ZIYORAT UZ-ZU’AFO’I MINNATTAVOZU’I [147]

*Za‘fahlig‘a altoftavaqqu’ bilgil,  
Lutfung bila ul elga taraffu’ bilgil,  
Bu nuktani nas yo‘q, tasomu’ bilgil,  
Ul qavm ziyyoratin tavozu’ bilgil.*

ZIYNAT UBOTINI XAYRUN MIN ZIYNAT IZ-ZOHIRI [148]

*Eykim, qilasen jilvau ishrat chog‘i zeb,  
Mustahsan emas er kishining qilmog‘i zeb  
Gar bo‘lsa ishing ko‘pragi yo ozrog‘i zeb,  
Zohirdin erur sutuda botindog‘i zeb.*

ZUHD UL-OMIY MUZILLATUN [149]

*Kim bor esa haqqa dargoh xoklig‘i,  
Ilm ortuqkim, ikki jahon shohlig‘i,  
Olam fisqida bordur ogohlig‘i,  
Omi kishi bo ‘ldi zuhdi gumrohlig‘i.*

SU’ UZ-ZANNI MINAL-HAZMI [150]

*Xushturur bu jahonda benishonliq kishiga,  
Faqr ahli yo ‘lida notavonliq kishiga,  
Hojat emas asru xurdadonliq kishiga,  
Ko ‘p hazmdan o ‘ldi badgumonliq kishiga.*

SURURUKA BID-DUNYO G‘URURUKA [151]

*Ganj uzra ayog‘ingg‘a murur o ‘ldi g‘urur,  
Gulgash’t eta gulshanda huzur o ‘ldi g‘urur,  
Dunyo soridin sanga surur o ‘ldi g‘urur,  
Bu borchha g‘urur o ‘ldi, g‘urur o ‘ldi g‘urur.*

SU’ UL-XULQI LO XALOSA FIHO [152]

*Ko ‘nglungni arit borchha yamon xislatdin-  
Kim, yaxshi qilig‘ dalil erur rahmatdin,  
Badxo ‘yliq ul vahshat erur shiddatdin-  
Kim, elga xalosliq yo ‘q ul vahshatdin.*

SIYRAT UL-MAR’I TABNI AN SARIRATHI [153]

*Desang topay el zamiridin bore xabar,  
Sirridin erur tavri namudori xabar,  
Tavrin ko ‘ru ravshan ayla har sori xabar-  
Kim, ko ‘nglidagidin berur atvori xabar.*

SALOMAT UL-INSONI FI HIFZ UL-LISONI [154]

*Kim istasa mazhari karomat bo ‘lmoq,  
Har nav’ ishda istiqomat bo ‘lmoq,  
So ‘zdur anga mujibi garomat bulmoq,  
Til zabtidadur anga salomat bo ‘lmoq.*

SODAT UL-UMMAT IL-FUQAHU'U<sup>[155]</sup>  
*Qolg'on kishi kasbi ilmdin zahmat aro,  
Fiqh o'rgansun sa'y ila ul mehnat aro,  
Ilm ichra sharaf fiqhda bil nisbat aro-  
Kim, sarvar erur faqih bu ummat aro.*

SAKRAT UL-AHYO'I SU' UL-XULQI<sup>[156]</sup>  
*Noxush qilsang kishiga ma'lum qilig',  
Bilkim, ani zoye' aylar ul shum qilig',  
Dun bo'lsa erur kishiga masnum qilig',  
Dushvordurur kishiga maznum qilig'.*

SILOH UZ-ZU'AFO'I SHIKOYATUN<sup>[157]</sup>  
*Kim dardidin etsa mehribonlarg'a gila,  
Osoyish erur g'amzada jonlarg'a gila,  
Ermastur yaxshi pahlavonlarg'a gila-  
Kim, bo'ldi siloh notavonlarg'a gila.*

SAMM UL-MA'A FIT-TAVOZU'I<sup>[158]</sup>  
*Ko'p yetti shikast sarbaland o'lmoq aro,  
Ul nav'ki qadar mustamand o'lmoq aro,  
Kasb ayla biyiklikni najand o'lmoq aro-  
Kim, rif'at erur niyozmand o'lmoq aro.*

SUKUT UL-LISONI SALOMAT UL-INSONI<sup>[159]</sup>  
*Til ildomidin bo'lur g'aromat hosil,  
Yuz nav' nadomatu malomat hosil,  
Oz so'zlaganidin istiqomat hosil,  
Sokitligidin vale salomat hosil.*

SHAYN UL-ILM IS-SALAFU<sup>[160]</sup>  
*Har kimgaki tab'jomi sof o'ldi yaqin,  
Bilmak sori anga ittisof o'ldi yaqin,  
Har nukta aro lofu gazof o'ldi yaqin-  
Kim, ilmg'a aybu shayn lof o'ldi yaqin.*

SHARR UL-UMURI AQRABUHO MIN ASH-SHARRI [161]

*Xar ishki ulus ollida mavzun bo 'lg'ay,  
Kilg'on ani har baxt humoyun bo 'lg'ay,  
Ish poyoniki zishtu vojun bo 'lg'ay.  
Uldurki yamon ish bila maqrin bo 'lg'ay.*

SHAMMIR FI TALAB IL-JANNATI [162]

*Nutqungni ulusqa uylakim shahd ayla,  
So 'z talx demasga haq bila ahd ayla,  
Joningni mahzi xudo uchun mahd ayla,  
Jannat talabida jid bila jah ayla.*

SHAHH AL-G'ANIYYU UQUBATUN [163]

*Xar kimsaki jud iktisobidur aning,  
El mafxari zot komyobidur aning,  
Har kimsaki, buxl irtikobidur aning,  
Gar bo 'lsa g'ani, buxl azobidur aning.*

SHAMMATUN MINAL-MA'RIFATI XAYRUN MIN KASIR IL-AMALI [164]

*Irfon ahlig'a el niyozi yaxshi,  
Ta'zim ila lutfi dilnavozi yaxshi,  
Gar ma'rifat o 'lsa chorasozi yaxshi,  
Toat ko 'pidin, ma'rifat ozi yaxshi.*

SHAYBUKA NO'IYKA [165]

*Qo 'yg'uvchi bog 'irg'a huzn dog'i qariliq,  
Solg'uvchi g'amu balo so 'rog'i qariliq,  
Tutquvchi to 'lo fano ayog'i qariliq,  
O 'lmak xabarin berguvchi dog'i qariliq.*

SHAFO' UL-JINONI MIN QIRO'AT IL-QUR'ONI [166]

*Qur'onki erur mujdai joni o 'qumoq,  
Yo 'q, yo 'qli, hayoti jovidoni o 'qumoq  
Bil ko 'nglunga istasang shifoni o 'qumoq-  
Kim, keldi ko 'ngul shifosi oni o 'qumoq.*

SHART UL-O‘LFATI TARK UL-KULFATI<sup>[167]</sup>

*Ulfat ishida erur taxalluf qilmoq,  
Diljo ‘yluq aylarda tavaqquf qilmoq,  
Ulfat shartini betaassuf qilmoq,  
Bilgilki, erur tarki takalluf qilmoq.*

SHARR UN-NOSI MAN YATQIYH IN-NOSU<sup>[168]</sup>

*El qochsa birovdin el yamoni bil oni,  
Ahvolida idbor nishoni bil oni,  
Fe'l ichra ulus baloyi joni bil oni,  
Olam elining yamon yamoni bil oni.*

SIDQ UL-MAR ’I NAJOTUHU<sup>[169]</sup>

*Sidq ichra qachonki chiqsa oti arning,  
Fosh o 'lsa sadoqatda sifoti arning,  
Xushroqki tavil o 'lsa hayoti arning-  
Kim, sidqdin-o 'q durur najoti arning.*

SIHHAT UL-BADANI FIS-SAVMI<sup>[170]</sup>

*Doim tut o 'zunga ro 'zaning mehnatini-  
Kim, ruhqa yetkurur safo davlatini,  
Sihhat tilasang qilg 'il aning niyatini-  
Kim, ro 'zada qo 'ydilar badan sihhatini,*

SABRUKA YUVRAS UZ-ZAFARU<sup>[171]</sup>

*Sabr archi kishiga ranj afzun aylar,  
Oxir kishi folini humoyun aylar,  
Sabring nechakim ko 'ngulni mahzun aylar,  
Ham sabr seni zafarg 'a maqrung aylar.*

SALAVUT L-LAYLI BAHO 'UN BIN-NAHORI<sup>[172]</sup>

*Ko 'p qilma namoz amrida beparvoliq,  
Rak'at bila qil oh xadangin yoliq,  
Qilsang kecha sajdag 'a jabinfarsoliq,  
Kunduzunga ul namoz erur zeboliq.*

SALOH UL-BADANI FIS-SUKUTI [173]

*Daxr ichra sukut jomidin madhush o 'l,  
Lab birla so 'zung yuziga burqa 'po 'sh o 'l,  
Demonki, so 'z ayturg 'a balog 'at ko 'sh o 'l,  
Nafsingg 'a saloh istar esang xomush o 'l.*

SALOH UL-INSONI FI HIFZ IL-LISONI [174]

*Oz nukta degil, tilar esang jong 'a saloh,  
Tashvishli g 'aldt biymidin iymong 'a saloh,  
Inson ani bilki, kom erur onga saloh,  
Til hifzidadur zumrai insong 'a saloh.*

SOHIB UL-AXYORI YA 'MANU UL-ASHRORA [175]

*Asli maqsud soridur yo 'l suhbat,  
Farxunda kishiki topqay o 'shul suhbat,  
Yaxshi kishilar birla tutar bo 'l suhbat,  
To bergay amon sharirdin ul suhbat.*

SAMT UL-JOHILI SUTRUHU [176]

*Johilki g 'arazdur ashhabu jarda anga,  
So 'z raxshi batidur tarab aylarda anga,  
Ermas chun nutq nuktaparvarda anga,  
Xomushlug 'i holig 'adur parda anga.*

SILA RAHMAKA TAKSURU HASHAMAKA [177]

*Har necha qarobatdin alam ko 'plugidur,  
Suhbatlari anduhu sitam ko 'plugidur,  
Vuslatlari garchi elga g 'am ko 'plugidur,  
Qil vuslat alarg 'akim hasham ko 'plugidur.*

SALOH UD-DINN FIL-ZARO 'I VA FASODHU FIT-TAMA 'I [178]

*Dinknm, anga af'oli taba 'din bo 'ldi,  
Qalqon anga «azza man qana » din bo 'ldi.  
Andoqki saloh anga vara 'din bo 'ldi,  
Bilgilki, fasod anga tama 'din bo 'ldi.*

ZALLA SA'YU MAN RAJA'A G'AYR UL-LOHI [179]

*Haqdin kishikim yo'q orzuxohlig'i,*

*Bilgilkı, gadolikdur aning shohlig'i,*

*Juz haqdin aningki bo'lsa ogohlig'i,*

*Ummidi erur g'oyati gumrohlig'i.*

ZAMMAN AL-LOHU RIZQA KULLA AHADIN [180]

*Har kimki, yaqin anga muhaqqaq bo'ldi,*

*Ollida maosh ishida ravnaq bo'ldi,*

*Qilmoq tama' elga sahvi mutlaq bo'ldi,*

*El qismatining kafili chun haq bo'ldi.*

ZARB AL-HABIBI AVJA'U [181]

*Kim do'st durur nozu naim angla ani,*

*Dushman esa niyroni jahim angla ani,*

*Tan xok esa xasmdin, salim angla ani,*

*Zarbeki habib urar, alim angla ani.*

ZIYO UL-QALBI MIN AKL IL-HALOLI [182]

*To ishq balosig'a faqir o'ldi ko'ngul,*

*Har ko'zi harimig'a asir o'ldi ko'ngul,*

*Hurmat aro tiyra masir o'ldi ko'ngul,*

*Ma'quli haloldin munir o'ldi ko'ngul,*

ZARB UL-LISONI ASHADDU-MIN TA'N IS-SINONI [183]

*Chun sinsa ko'ngul zaxmi zabon og'rig'idin-*

*Kim, ermas aning og'rig'i jon og'rig'idin,*

*Har neki sanga yetar lison og'rig'idin,*

*Bilgilkı, qatiqdurur sinon og'rig'idin.*

ZALLA MAN RAKANA ILAL-ASHRARI [184]

*Mayl ayla hamisha mehribonlar sori,*

*Yaxshilaru turfa kordonlar sori,*

*Dol o'ldi yamon kishiga qonlar sori,*

*Ozdi kishikim, bordi yamonlar sori.*

ZALLA MAN BO' AD-DINA BID-DUNYO [185]

*Dunyo sorikim mayl o'qin otti, axiy,  
Aning vahlig'a belicha botti, axiy,  
Gumroh ulus ichra o'zin qotti, axiy,  
Dunyog'a birovki dunyonи sotti, axiy.*

ZOQA SADRUHU MAN ZOQA YADUXU [186]

*Ulkim qo'lida durri laoli bo'lg'ay,  
G'amning anga qayda ehtimoli bo'lg'ay,  
Muflis bo'lmoq tarab zavoli bo'lg'ay,  
G'amgindurur ulki, ilgi xoli bo'lg'ay.*

ZOQAT ID-DUNYO ALAL-MUTANOQIZINA [187]

*Xayleki mavaddat oshkor ayladilar,  
Avqot xazonini bahor ayladilar,  
Jam'iki muxosamat shior ayladilar,  
Keng dahr o'ziga tangu tor ayladilar.*

TOBA VAQTU MAN VASAQA BIL-LOHI [188]

*Ulkim, tunu kun ko'ngli murodi haqdur,  
Har g'ussada oromi fuodi haqdur,  
Yuz har sorikim, ketursa hodi haqdur,  
Xush vaqtı aningki, e'timodi haqdur.*

TUBO LIMAN RO'ZIQA BIL-OIFIYYATI [189]

*Dardig'a aningki haq davo qildi nasib,  
Maqsudini aylamak ravo qildi nasib,  
Ul kimsaga oyini xudo qildi nasib—  
Kim, ofiyat ishin ango qildi nasib.*

TUL UL-UMRI MINAT-TO'ATI MIN XALI' IL-ANBIYOI [190]

*Toat sori qil tilingni joriy oxir-  
Kim, andin erur el e'tibori oxir,  
Toatda uzun umr shumori oxir,  
Topqong'a bil anbiyo shiori oxir.*

TOLA UMRU MAN QASARA TA 'ABAHU<sup>[191]</sup>  
*Xush vaqt fano bazmi sori borg 'onning,*  
*Yo 'ldin o 'zluk qaydini qaytarg 'onning,*  
*Qisqordi hayoti g 'am ichin yorg 'onning,*  
*Umri uzun o 'ldi ranji qisqorg 'onning.*

TALAB UL-ADABI AVLO MIN TALAB IZ-ZAHABI<sup>[192]</sup>  
*Haq yo 'lida nafsing 'a taabdur yaxshi,*  
*Nekim sanga amri etti, talabdur yaxshi,*  
*Dema tarab aylarda zanabdur yaxshi-*  
*Kim, andin el istarga adabdur yaxshi.*

TIR MA ' AL-ASHKOLI<sup>[193]</sup>  
*Nojins ila lutfu inbisot oz -ayla,*  
*Hampeshani hamnishinu hamroz ayla,*  
*Hammashrab ila nishot og 'oz ayla,*  
*Hamjins bila hamisha parvoz ayla.*

TOLA UMRU MAN QASARA RAJA 'UHU<sup>[194]</sup>  
*Dunyo sori bormavu bo 'l ondin navmid,*  
*Bo 'lg 'il yo 'qsa aziz jondin navmid,*  
*Har kimsaki ul bo 'ldi jahondin navmid,*  
*Ul bo 'lmadi umri jovidondin navmid.*

TO 'AT UL-ADUVVI HALAKUN<sup>[195]</sup>  
*Tut haq tarafi kasbi sanoat qilmoq,*  
*Haqdin neki yuzlansa, qanoat qilmoq,*  
*Jon topmoq erur do 'stg 'a toat qilmoq,*  
*Dushmang 'a o 'lumdurur itoat qilmoq.*

TO 'AT UL-LOHI G 'ANIMATUN<sup>[196]</sup>  
*Shayton yo 'lidin ayla hazimat zinhor,*  
*Qilg 'il rahmon sori azimat zinhor,*  
*Toat bila ber o 'zungga qiymat zinhor,*  
*Haq toatini angla g 'animat zinhor.*

ZULM UL-MAR'I YAZRU'UHU<sup>[197]</sup>

*Davron kishiga zulm fuzun aylamagay,  
To oni taabg'a rahnamun aylamagay,  
El zulm ila xalqii zabun aylamagay-  
Kim zulmu-o 'q oni sarnigun aylamagay.*

ZALOMAT UL-MAZLUMI LO TUZI'U<sup>[198]</sup>

*Zolimki, tilar aylasa olam zoye',  
Mazlumni bedodi etar kam zoye',  
Mazlumni garchi aylagay g'am zoye',  
Ul ranjki chekti bo 'lmag'ay ham zoye'.*

ZULM UZ-ZOLIMI YAUDUHU ILAL-HALOKI<sup>[199]</sup>

*Zolimki, erur zulmu jafo hosil anga,  
Zulm etgali-o 'q xotir o 'lur moyil anga,  
Bo 'lmoq xush emas qilg'onidin xushdil anga,  
O'z zulmidin-o 'q o 'lg'usidur qoyil anga.*

ZAMA' UL-MOLI ASHADDU MIN ZAMA' IL-MO'<sup>[200]</sup>

*Dunyo sori hirs har yamondin ortuq,  
Tark etmak ani kavnu makondnn ortuq,  
Suvsizg'a suv shavqi bo 'lsa jondin ortuq  
Bil, siflag'a mol shavqi ondin ortuq.*

ZILLU UMR IZ-ZOLIMI QASIRUN<sup>[201]</sup>

*Zolimki, shior etti jafo poyasini,  
O'z voyasin istab oldi el voyasini,  
Qaydin topqay hayot sarmoyasini,  
Haq ayladi qisqa umrin soyasini.*

ZILL UL-KARIMI VASI'UN<sup>[202]</sup>

*Mukrim ishini ko 'rki, bade' o 'ldi base,  
Bog'ida xarif anga rabe' o 'ldi base,  
Chun guli murod anga rafe' o 'ldi base,  
Ul naxlg'a ham soya vase' o 'ldi base.*

ZILL UL-A'VIJI A'VAJU<sup>[203]</sup>

*Kim egri esa, tuzluk emas poyasi ham,  
Bor o 'zidek egri sudu sarmoyasi ham,  
Tuzluk ermas shifosiyu voyasi ham-  
Kim, egri kishining egridur soyasi ham.*

ISH QANI'AN TAKUN MALIKAN<sup>[204]</sup>

*Qilsang tama' eldin hadafı xuzlon bo 'l,  
Sargashtau xoru besaru somon bo 'l,  
Tarki tama' ayla, hokimi davron bo 'l,  
Ya 'niki, qanoat aylavu sulton bo 'l.*

ULUVV IL-HIMMATI MINAL-IYMONI<sup>[205]</sup>

*Gar bo 'lsa asosi qasri davlat oliy,  
Iymong 'a bo 'lur ravoni hashmat oliy,  
Himmat topar iymon bila rutbat oliy,  
Iymondin erur gar o 'lsa himmat oliy.*

AYB UL-KALOMI TAVIYLUHU<sup>[206]</sup>

*Bermas tatvil chun sxuxandon so 'zga,  
Qil muxtasar ulcha bo 'lg 'ay imkon so 'zga,  
Ko 'p ayb topar kimsa farovon so 'zga,  
Chun chekti uzoqqa, yetti nuqson so 'zga.*

OQIBAT UZ-ZOLIMI VAHIMATUN<sup>[207]</sup>

*Odil ko 'ziga bu ka 'ba, ul dayr o 'lmas,  
Zolimda jafo qilurda el g 'ayr o 'lmas,  
Odilg 'a bajuz xayr sori sayr o 'lmas,  
Zolim kishining oqibati xayr o 'lmas.*

ADUVVUN OQILUN XAYRUN MIN SADIQIN JOHILIN<sup>[208]</sup>

*Har kimki, xirad yo 'li sori moyil esa,  
Bu do 'st anga har nechakim qoyil esa,  
Bir do 'stdin ortuqdur agar johil esa,  
Andoq dushmanki, ziyraku oqil esa.*

USR UL-AMRI MUQADDAMAT UL-YUSRI<sup>[209]</sup>

*Mushkillik ilaki ish adosi keldi,*

*So 'ngra anga «al-aysh» nidosi keldi,*

*Ish sa'bki, odami balosi keldi,*

*Osonlig 'u ayshi ibtidosi keldi.*

ALAYKA BIL-HIFZI DUN AL-JAM'I MINAL-KUTUBI<sup>[210]</sup>

*Donish tilayu har sori gar ketgaysen,*

*Hifz aylamasang varaq yig 'ib netgaysen,*

*Sa'y aylaki, hifzi ganjig 'a yetgaysen,*

*Yo 'q ulki, kutub sa'y ila jam' etgaysen.*

UQUBAT UZ-ZOLIMI SUR'AT UL-MAVTI<sup>[211]</sup>

*Kim ila bo 'lsa tiyra avqotlig 'i*

*Bor lozimi umr tulining yotlig 'i,*

*Bot bo 'lg 'ay ajal bisotig 'a motlig 'i,*

*Zolimg 'a uqubatdur o 'lum botlig 'i.*

AQIYBU KULLI YAVMIN LAYLATUN<sup>[212]</sup>

*Kofur qoshida mushk solo ermish,*

*Gul janbida sunbul oshkorso ermish,*

*Har yuz bila bir zulfi sumanso ermish,*

*Har kun so 'ngida bir kecha paydo ermish.*

G'ANIMA MAN SALAMA<sup>[213]</sup>

*Gardunki erur tig 'zani johildek,*

*Har kun anga uzundurur bir yildek,*

*Tongdin oqshomg 'a qon to 'kar qotildek,*

*Solimlig 'in andin el g 'animat bildik.*

ALA QADR IL-MUTTAQINA VA ALA QADR IL-MUTAVAKKALINA<sup>[214]</sup>

*Ne bo 'lg 'usidur ahli tajohul qadri,*

*YoYe zumrai a 'vonu takosul qadri,*

*Yo 'q dayrda arbobi tag 'oful qadri,*

*Behad bo 'lur ashobi tavakkul qadri.*

G‘AMRAT UL-MAVTI AHVANU MIN MAJOLISATI MAN LO YAHVOHU QALBUKA [215]

*Gar ko ‘rsa o ‘lum g‘amin nihoniy ko ‘nglung,*

*Ul ranjda qolsa jovidoniy ko ‘nglung,*

*Ul kimsacha ermas o ‘lsa fony ko ‘nglung-*

*Kim, suhbat aro istamas oni ko ‘nglung.*

G‘ULOMUN OQILUN XAYRUN MIN SHAYXIN JOHILIN [216]

*Gar kimsada zohir o ‘lsa tamkini xirad,*

*Andin bilgilki topti tazyini xirad,*

*Andoq qarikim yo ‘q anda oyini xirad,*

*Ul yosh ortuqliki, topti talqini xirad.*

G‘OBA XATTUHU MAN G‘OBA NAFSAHU [217]

*Ey hajr, meni sen ayla jondin g‘oyib,*

*Lekin qilma ul ostondin g‘oyib,*

*Har kimsaki, bo ‘ldi bir makondin g‘oyib,*

*Ham bo ‘ldi aning bahrasi ondin g‘oyib.*

G‘ADRUKA MAN DALLAKA ALAL-USO’ ATI [218]

*G‘addorki qismingni malolat qildi,*

*G‘am kishvaridin sanga risolat qildi,*

*Uz jonini qadringg‘a havolat qildi-*

*Kim, seni yamonliqqa dalolat qildi.*

G‘ASHSHAKA MANIS-XATAKA BIL-BOTILI [219]

*Shukr aylaki, haq ahli yaqin qildi seni,*

*Gar sabru tahammulg‘a qarin qildi seni,*

*Uzr etti sanga dog‘i hazin qildi seni,*

*Botil bila ulki hashmgin qildi seni.*

G‘AZABUKA ANIL-HAQQI MUQBIHATUN [220]

*Doim tilagan ayshu tarab noxushtur,*

*No ‘sh aylamagan ranju taab noxushtur,*

*Yolg‘ong‘a kishi qilsa g‘azab noxushtur,*

*Chindin g‘azab etmaging ajab noxushtur.*

G‘ANIMAT UL-MO‘’ MIN VAJDON UL-HIKMATI [221]  
*Mo ‘’min bori eldin o ‘zini kam bilsa, kerak,*  
*Haqdin ne anga kelsa, karam bilsa kerak,*  
*Behikmatlig ‘ini dardu g ‘am bilsa kerak,*  
*Hikmat toparini mug ‘tanam bilsa kerak.*

FOZA MAN ZAFARA BID-DINI [222]  
*Bor ahli jahong ‘a shohu sarvar bo ‘lg ‘on,*  
*Din ma ’rakasida gurdu safdar bo ‘lg ‘on,*  
*Firuz emas boshida afsar bo ‘lg ‘on,*  
*Firuzdurur ding ‘a muzaffar bo ‘lg ‘on.*

FAHO UL-MAR’I BIFAZLIG ‘I AVLO MIN FAXRIHI BIASLIHI [223]  
*Har kimki, xaloyiq ichra dono ko ‘runur,*  
*Oyini xirad aro tavono ko ‘runur,*  
*Faxr asl bila ajab tamanno ko ‘runur,*  
*Faxr aylasa fazl birla avlo ko ‘runur.*

FALAJUKA ALA XASMIKA FIL-IHTIMOLI [224]  
*Har kom sanga yetsa taammuldin bil,*  
*Nokomliq ursa, yuz tag ‘ofuldin bil,*  
*Maqsudg ‘a yetmaging tavakkuldin bil,*  
*Xasmaingg ‘a zafar hilmu, tahammuldin bil.*

FITNAT UL-MAR’I YADULLU ALA ASLIHI [225]  
*Nodonlig ‘ arur elda malolatg ‘a dalil,*  
*Dono ulus ollida xijolatg ‘a dalil,*  
*Beasl ishi-bo ‘lmadi adolatqa dalil,*  
*Donolig ‘ erur elda asolatg ‘a dalil.*

FOZA MAN SALAMA MIN SHARRI NAFSIHI [226]  
*Nodong ‘a erur hamisha olim firuz,*  
*Odil kishiga bo ‘lmadi zolim firuz,*  
*Bordur der esang xalq arokim firuz-*  
*Kim, nafs sharridin o ‘ldi solim firuz.*

FAR' USH-SHAY'I YUXBIRU AN ASLIHI [227]  
*Yo 'q lazzati sabrdek mukaddar nimaning,  
O 'z xurdig 'adur zavqi muqarrar nimaning,  
Beaslg 'a yo 'q fahmi tuyassar nimaning,  
Far'i berur asldin xabar har nimaning.*

FIKAK UL-MAR'I FIS-SIDQI [228]  
*Olam elig 'a hayot erur tuzlukdin,  
Yetmak g 'arazig 'a bot erur tuzlukdin,  
Norostqa ko 'p uyot- erur tuzlukdin,  
Lek er kishiga najot erur tuzlukdin.*

FI KULLI QALBIN SHUG 'LUN [229]  
*Aning qaro qoshu ko 'zga mashg 'ulligi,  
Munung dog 'i pok so 'zga mashg 'ullig 'i,  
Birning to 'qumog 'da bo 'zga mashg 'ullig 'i,  
Har qaysi ko 'ngulning o 'zga mashg 'ullig 'i.*

HASADAT NE'MATU MAN KAFARAHO [230]  
*Dono kishi shukri ne 'mat aytur jondin-  
Kim, ne 'mati ortuqroq o 'lur yazdondin,  
Doim bu sifat amr kelur yod ondin-  
Kim, ne 'matini fosid etar kufrondin.*

QAVL UL-MAR'I YUXBIRU AMMO FI QALBIHI [231]  
*So 'z zohir etar zamir ishi ko 'pragidin,  
Til muxbir erur ko 'ngul nihon emgagidin.  
Fahm ayla kishi holini so 'z demagidin-  
Kim, berdi xabar hadisi ko 'nglidagidin.*

QUVVAT UL-QALBI MINI SIHHAT IL-IYMONI [232]  
*Iymon topqon kishiga haq rahmatidin,  
G 'am yo 'q shayton vasvasau zahmatidin,  
Iymong 'a mador o 'ldi ko 'ngul quvvatidin,  
Ko 'ngul aro quvvat o 'ldi din sihhatidin.*

QADDIR FIL-AMALI TANAJJA MIN AZ-ZALALI<sup>[233]</sup>

*Ulkim, ishi bevaqtu mahal bo ‘lmag‘usi,  
Har ishtaki, sa ‘iy etsa halal bo ‘lmag‘usi,  
Qonun bila kimgakim, amal bo ‘lmag‘usi,  
Ul qilmog ‘i juz ranju zagal bo ‘lmag‘usi.*

QARIN UL-MAR ’I DALILU DINIHI<sup>[234]</sup>

*Haq kimgaki ro ‘ziy etti din davlatini,  
Shak yo ‘qli, qilur ikki jahon ishratini,  
Hamsuhbat ila topar chu din quvvatini,  
Dinig ‘a dalil angla ham sihhatini.*

QURB UL-ASHRORI MUDIRRATUN<sup>[235]</sup>

*Bordur yamon elga hamnishinlig ‘da zarar,  
Xurramliq-aro ranju xazinlig ‘da zarar,  
Kasb etma sharr ahlidin qarinlig ‘da zarar-  
Kim, keldi yamonlarg ‘a yaqinlng ‘da zarar.*

QASVAT UL-QALBI MINASH-SHABA ’I<sup>[236]</sup>

*Ko ‘p to ‘’ma yer el arosidin ixroj o ‘l,  
Savm ahli aro bosh qo ‘yu sohib toj o ‘l,  
Kim qalbi daqiq erur, anga muhtoj o ‘l,  
To ‘qluq chu ko ‘ngulni qatiq aylar, och o ‘l.*

QADR UL-MAR ’I MOYU HIMMUHU<sup>[237]</sup>

*El poyasin anglay desang asrorini bil,  
Ko ‘nglidagi muddaosin izhorini bil,  
Qalbig ‘a ko ‘ra tashi namudorini bil,  
Matlubig ‘a boqu kimsa miqdorini bil.*

KALOMULLOHI DAVO ’ UL-QULUBI<sup>[238]</sup>

*Olam eli ichra gar gado, gar shoh erur,  
Ne dardki, ul ko ‘ngli aro hamroh erur,  
Qur’oni tilovat etsun ar ogoh erur,  
El ko ‘ngliga chun davo Kalomulloh erur.*

KUFRON UN-NE'MATI MAZILUHO [239]

*Har, shukrki, gar shahu, gar soyil etar,  
O'z ne'matin, ortmoq sori moyil etar,  
Ne'mat shukriga kim tilini qoyil etar,  
Ortar kufroni, lek ani zoyil etar.*

KAFO BISH-SHAYBI DO'UN [240]

*Yosh ulg'aysa toqi muqarnasdur dard,  
Balqim mamlu sipehri atlasdur dard,  
Qari kishiga balki kam emasdur dard,  
Yuz sihhati bo'lsa, qariliq basdur dard.*

KAFO LIL-HASUDI MIN HASUDIHI [241]

*Har kimki hasud erur sazodur hasadi  
Haqdin bo'lg'on yamon qazodur hasadi,  
O'z jonig'a yetguncha balodur hasadi,  
Balkim, anga dardi bedavodur hasadi.*

KAMOL UL-ILMI FIL-HILMI [242]

*Olimii, pisandadur xisoli bilgil,  
Hilmin tan aro ruh misoli bilgil,  
Komilda kerak hilm xayoli bilgil-  
Kim, hilmdadur ilm kamoli bilgil.*

KAMOL UL-JUD IL-E'TIZORU MINHU [243]

*Yo'q fe'l kishiga yaxshiroq ehsondin,  
Ofoq eliga judi bepoyondin,  
Gar mujtanib o'lsa davr aro nuqsondin,  
Judig'a kamoli uzr bilgil ondin.*

KAFOKA MIN UYYUB, ID-DUNYO AN LOYABQO [244]

*Bu dahr ajuzeki, vafosi yo'q aning,  
Bir sohishadekdurki, hayosi yo'q aning,  
Dema munikim, aybu xatosi yo'q aning,  
Aybi bas erur bukim, baqosi yo'q aning.*

QAFOKA HAMMAN ILMUKA BIL-MAVTI [245]

*Ey ulki, emas maxzani olam sanga bas,  
Bazl etgali bir xizona hardam sanga bas,  
Yodingg'a o 'lum kirmagi-motam ranga bas,  
O 'lmakni yaqin aylamaging g 'am sanga bas.*

LAYYIN UL-KALOMI QAYDU QULUBI [246]

*Har kimki, chuchuk so 'z elga izhor aylar,  
Har nechaki ag 'yordurur, yor aylar,  
So 'z qattig 'i el ko 'ngliga ozor aylar,  
Yumshog 'i ko 'ngullarni giriftor aylar.*

LAYYIN QAVLAKA TAHBUB [247]

*Xo 'b el bila suhbat tutubon xo 'b o 'lg 'il,  
Yaxshini talab qilg 'ilu matlub o 'lg 'il,  
Shirin so 'z ila xalqqa marg 'ub o 'lg 'il,  
Yumshoq de hadisingniyu mahbub o 'lg 'il.*

LAYS ASH-SHAYBU MINAL-UMRI [248]

*Qarig 'a bajuz dahr azobi ermas,  
Bog 'ida yigitlik obu tobi ermas,  
Odamg 'a hayot juz shabobiy ermas,  
Ya 'ni, qariliq umr hisobi ermas.*

LAYSA LI-SULTON IL-OLIMI ZAVOLUN [249]

*Har kimdakim ilm qiyulu qoli bo 'lmas,  
Ilm ahlig 'a so 'z derga majoli bo 'lmas,  
Olim mulkining intiqoli bo 'lmas,  
Shah olim agar bo 'lsa, zavoli bo 'lmas.*

LAYS ASH-SHUHRATU MIN AR-RU'UNATI [250]

*Donog 'a takalluf to 'ni kiymak qindur,  
Har chini sori orazida bir chindur,  
Shuhrat to 'ni kiymaging ruunatdindur,  
Kiy xirqai faqru. xotiringni tindur.*

LIKULLI ADOVATIN MUSLIHATUN ILLO ADOVAT ILHUSUDI [251]

*Isloh bo 'lur juhud dushmanlig 'ig 'a,  
Topmas chu guman sud dushmanlig 'ig 'a,  
Muslih tilagil rabud dushmanlig 'ig 'a,  
Lek etma talab hasud dushmanlig 'iga.*

MAN KASARA KALOMUHU KASARA MALOMUHU [252]

*Kim oz dedi nukta ayshu kom o 'ldi anga,  
So 'z qoidasida intizom o 'ldi anga,  
Haddin o 'ta har kimki kalom o 'ldi anga,  
Ul nav' kalomdin malom o 'ldi anga.*

MASHRAB UL-AZBI MUZDAHIMUN [253]

*Har kimgaki, achig' bo 'ldi so 'z ilqosi,  
Bor suhbatidin xalqning istig 'nosi,  
Har kimki, chuchuk nukta erur inshosi,  
Qoshidadur, albatta, ulus g 'avg 'osi.*

MAN ALLAT HIMMATUHU TOLA HAMUMUHU [254]

*Har kimki aning himmati dunroq bo 'ldi,  
Bilki, g 'amining naxli nighunroq bo 'ldi-  
Kim, himmati rif'ati fuzunroq bo 'ldi,  
Qayg 'ularining tori uzunroq bo 'ldy.*

MUSOHIBAT UL-ASHRORI RUKUB UL-BAHRI [255]

*Har vajh ila notavong 'a hamsuhbatliq  
Ko 'p yaxshiki, qomrong 'a hamsuhbatliq,  
Kishi xatari yamong 'a hamsuhbatliq,  
Daryo safari hamong 'a hamsuhbatliq.*

MO NADAMA MAN SAKATA [256]

*Har kimsaki, nuktasi farovon bo 'lmas,  
Til ranjiga qolmog 'lig 'i imkon bo 'lmas,  
Ko 'p so 'zlaguchig 'a g 'ayri nuqson bo 'lmas,  
Har kimki xamush bo 'ldi, pushaymon bo 'lmas.*

MAJLIS UL-ILMI RAVZAT UL-JANNATI [257]

*Kim olim esa, nuqtada barhaq de oni,  
Gar bazm tuzar, bihishti mutlaq de oni,  
Har kimsaki, yo 'q ilm anga ahmaq de oni,  
Majlisdaki ilm bo 'lsa uchmaq de oni.*

MAJLIS UL-KIROMI HUSUN UL-KALOMI [258]

*Yaxshi el ila erur madory hikmat,  
Har so 'zлari duri shohvori hikmat,  
Qil bazmlarida ixtiyori hikmat,  
Majlislari chun erur hisori hikmat.*

MANQABAT UL-MAR'I TAXTA LISONIHI [259]

*Har kimsaki, ollig'a yozildi hunari,  
So 'z pardasi ustida yopildi hunari,  
Chu nuktada dedi elga yoyildi hunari,  
Nevchunkim til ostida keldi hunari.*

NUR UL-MO‘ MINI MIN QIYOM IL-LAYLI [260]

*Har kimsaki, matlubi ko 'ngul sog 'lig 'idur,  
Tun ehyosi iloj qilmog 'lig 'idur,  
El sham 'i zamiriki vafo bog 'lig 'idur,  
Ravshanlig 'i tiyra tunning uyg 'og 'lig 'idur.*

NISYON UL-MAVTI SADO' UL-QALBI [261]

*Har kimki, maqomi umr avrang'i emish,  
G 'aflat mayining xamisha diltangi emish,  
Yod etmak o 'lum yorug 'luq ohangi emish,  
O 'lmakni unutmog 'ing ko 'ngul zangi emish.*

NAVVAR QABRAKA BIS-SALOTI FIZ-ZILAMI [262]

*Uyqu necha ishratu sururung birla,  
Ko 'zung qaro aylamak g 'ururung birla,  
Tiyra kecha toat et huzurung birla,  
Qabring uyini yorut bu nurung birla.*

NA'YITAILA NAFSIKA XINA SHABOBI RA'SIKA [263]

*Necha o'hashib bu nafsi xud koma sanga,*

*Noma qaro bo 'lg'ay uylakim xoma sanga,*

*Chun boshing oqormoq bo 'ldi hangoma sanga,*

*Oq xat bila o'lmaqdin erur noma sanga.*

NUM OMINAN TAKUN FI MAHD IL-FAROSHI [264]

*Necha yummay ko 'zungni har zevar aro,*

*G'aflat bila kirmak necha bahru bar aro,*

*Emin uyubon bu olami pur sharar aro,*

*Qil xobgahingni yaxshiroq bistar aro.*

NAYL UL-MANYI FIL-INO [265]

*G'amdin durur o 'zni shod topmoq bilgil,*

*Beto 'shaliq ichra zod topmoq bilgil,*

*Mehnat arodur kushod topmoq bilgil,*

*Ranj ichradurur murod topmoq bilgil.*

NOR UL-FIRQATI AHARRU MIN NORI JAHANNAMA [266]

*Hijron aro bir rafiqi mahram o 'tidin,*

*Kim kuysa tomug 'ni o 'rtagay g 'am o 'tidin,*

*Furqatki ko 'ngulni kuydurur ham o 'tidin,*

*Bilgil ani tezrak jahannam o 'tidin.*

NURU SHAYBIKA LO TAZLIMUHU BIL-MAVSIYYATI [267]

*Keldi qariliq nuri xato aylamagil,*

*Juz uzr yo 'lig 'a iltijo aylamagil,*

*Nurini aning zulmat aro aylamagil,*

*Isyon bila ya 'niki qaro aylamagil.*

NAZRAT UL-VAJHI FIS-SIDQI [268]

*Har kimgaki egrilikta ovoza durur,*

*Tuz jodda ichra yo 'lidin oza durur,*

*Tuzlukta tarab behadu andoza durur,*

*Kim rostdurur, yuzi aning toza durur.*

VAZ' UL-EHSONI FI G 'AYRI MAVZI'IHI ZULMUN<sup>[269]</sup>  
*Yaxshiliq erur yamong 'a mahkam bedod,*  
*Voqif bo 'lu zohir etma har dam bedod,*  
*Ehson erur andinqi, kerak kam bedod,*  
*O 'z yerida qilmog 'onduru ham bedod.*

VAZRU SADAQAT IL-MANNONI AKSARU MIN AJRIHI<sup>[270]</sup>  
*Kim sadqa berur agarchi Afridundur,*  
*Gar minnat etar bu fe'l ila mat'undur,*  
*Minnat bila ulki sadqa aylar dundur-*  
*Kim, jurmi aning savobidin afzundur.*

VILOYAT UL-AHMAQI SARI' UZ-ZAVOLI<sup>[271]</sup>  
*Har kimga xirad tariqining nisbati bor,*  
*Davlatqa agar yetsa aning muddati bor,*  
*Ahmaqqa chu yetsa sultanat shan'atn bor,*  
*Sultonlig 'ining zavolig 'a sur'ati bor.*

VAYLUN LIMAN SO'A XULQAHU VA QABAHA XALQAHU<sup>[272]</sup>  
*Xushxo 'yliq ilaki, sarnavisht o 'ldi anga,*  
*Do 'zax so 'zi lutfidin bihisht o 'ldi anga,*  
*Voy ul kishigakim, xulqi zisht o 'ldi anga,*  
*Bu xulqi bila yamon sirisht o 'ldi anga.*

VAHDAT UL-MAR'I XAYRUN MIN JALIS IS-SU'I<sup>[273]</sup>  
*Bekasligu dard ko 'yida gard o 'lmoq,*  
*Xushroqki, yamon bila hamovard o 'lmoq,*  
*Yolg 'iz bo 'l, topma ranjparvard o 'lmoq,*  
*Xushroq chu yamon rafiqdin fard o 'lmoq.*

VA ASOKA MAN TAG 'OFALA ANKA<sup>[274]</sup>  
*Nafsing nechakim ishta tajohul qildi,*  
*Davronda tashadduddek tasalsul qildi,*  
*Bor o 'ldi sanga ulki, tahammul qildi,*  
*Qo 'rguzdi muvosovu tag 'oful qildi.*

VOLOKA MAN LAM YU'ODUKA [275]

*Davr ahlig 'a lutfi jonfizo ko 'rguzgil,  
El qilsa yamon, yaxshi jazo ko 'rguzgil,  
Yo 'q, yoringa sidq ila safo ko 'rguzgil-  
Kim, qilmasa xasmliq vafo ko 'rguzgil.*

VAYLUN LIMAN VATAR AL-AHZONU [276]

*Dahr uyida ulki ranjparvard o 'lg 'ay,  
Ko 'p yaxshiki bedardg 'a hamdard o 'lg 'ay,  
Jon gulshanida chu yaxshi el vard o 'lg 'ay,  
Voy angaki, yaxshilardin ul fard o 'lg 'ay.*

VAYLUM DIL-HASUDIMAN HASADAHU [277]

*Har kimki, hasad xislatidur, voy anga,  
Iqbol ila farq o 'lsa falaksoy anga,  
Hech ofatdin bo 'lmasa parvoy anga,  
Ham o 'z hasadi ofatidin voy anga.*

VALLO' UT-TIFLI MARZUQUN [278]

*Har kimgaki, tifl o 'lsa erur ko 'zi ochuq,  
Shug 'li bila xotiri g 'amanduzi ochuq,  
Bo 'lmoq ne ajab bazmi dilafruzi ochuq,  
Kim tifli bor ersa yo anga ro 'zi ochuq.*

HUMUM UL-MAR 'I BIQADRI HIMMATIHI [279]

*Himmat eli ko 'zda qurutub namlarini,  
Necha qilur oshom falak samlarini,  
Har kimki urar himmat ila damlarini,  
Himmatlarining xuridadur g 'amlarini.*

HAMM AS-SA'IDU OXIRATAHU VA HAMM ASH-SHAQNYYU DUNYOHU [280]

*Uqbo g 'ami ul yer ani dono bil,  
Yegonni jahonning g 'amini dono bil,  
Kim bo 'lsa said aning g 'amin uqbo bil,  
Bo 'lg 'ong 'a shaqi g 'amin bozayi dunyo bil.*

HALOK UL-MAR'I FIL-USBI [281]

*Kasb ayla nishot mehnatoyinlik aro-  
Kim, ishrat umidi keldi g'amginlik aro,  
Ko'rma aroda o'zingni miskinlik aro-  
Kim, bo'ldi, kishi haloki xudbinlik aro.*

HURUBUKA MIN NAFSIKI ANFA'U MIN HARUBIKA MINAL-ASADI [282]

*Kim kinavar o'lса, ista ondin qochmoq,  
Nevchunki, zarurdur yamondin qochmoq,  
Er o'g'lig'a nafsi kinarondin qochmoq,  
Naf'durkim, sheri jayondin qochmoq.*

HOMMAT UL-MAR'I HIMMATUHU [283]

*Har kimsaki iqbol aning yovaridur,  
Har yonki yuz ursa, himmati rahbaridur,  
Himmat duri faxr tojining gavharidur,  
Chun himmati odam o'g'lining sarvaridur.*

HALAK AL-HARISU VA HUVA LO YA'LAMU [284]

*Hirs ahlig'a g'ayri nesh sonchilmas hech,  
Bag'ridin aning bu nesh ayrilmas hech,  
Bu mahlaka ichra fikrini qilmas hech,  
Hirs ani halok etti, ul bilmas hech.*

HIMMAT UL-MAR'I QIYMATUHU [285]

*Himmat elining garchi xulq kisvati bor,  
Charx atlasidin vale biyik rif'ati bor,  
Beqiyomat erur ulki biyik himmati bor,  
Garchi necha kam himmati bor qiymati bor.*

HOTA MO INDAKA TA'RIFU BIHI [286]

*Ham lofu gazof daftarin kuydurgil,  
Ham xomani insof xatig'a surgil,  
Har neki sanga bilikdur kelturgil,  
Holingni ham andin el aro bildurgil.*

LO DINA LIMAN LO IYMONATA LAHU [287]

*Kim olam aro uyoti yo ‘qtur aning,  
Din nuktasida fatonati yo ‘qtur aning,  
Dindor ulkim, hiyonati yo ‘qtur aning,  
Yo ‘q din angakim, amonati yo ‘qtur aning.*

LO DINA LIMAN LO MURUVVATA LAHU [288]

*Xar kimsaki, din ichinda quvvat yo ‘q anga,  
Jazm aylaki, oyini futuvvat yo ‘q anga  
Din ahli bila rasmi uxuvvat yo ‘q anga,  
Ul kimsada yo ‘q dinki, muruvvat yo ‘q anga.*

LO FAQRA LIL-OQILI [289]

*Har kimsaki aql ko ‘nglidin zoyildur,  
Qorun esa, oqil qoshida soyildur,  
Yuz ganj kishiga aqldin hosildur,  
Yo ‘qtur anga faqru foqakim oqildur.*

LO ROHATA LIL-HASUDI [290]

*Olam elida birov saodatsiz o ‘lur-  
Kim, faqr yo ‘lida istitoatsiz o ‘lur,  
Izzat topmaskim qanoatsiz o ‘lur,  
Har kimsa hasud bo ‘lsa, rohatsiz o ‘lur.*

LO G‘AMMA LIL-QONI’I [291]

*Qone ‘g‘a maxzani saodat kam yo ‘q,  
Juz zumrai e’zozu sharaf hamdam yo ‘q,  
Xursandliq oyini kibi olam yo ‘q,  
Har kimsadakim bo ‘lsa qanoat, g‘am yo ‘q.*

LO HURMATA LIL-FOSIQI [292]

*Fisq ahlig ‘a bo ‘lmas kishi qilmoq hurmat-  
Kim, ermas aning holig ‘a ravnaq hurmat,  
Fosiqqa nasib etmadi chun haq hurmat,  
Xushroqtur ani tutmasa mutlaq hurmat.*

LO QAZAFA LIL-FOHISHI [293]

*Har kim so 'zi fahsh-aql anga rom o 'lmas,  
Bu nav' neku kishi saranjom o 'lmas,  
Dashnomdin o 'zga aqlg 'a kom o 'lmas,  
Bu turfakim, dashnom anga dashnom o 'lmas.*

YA' TIKA MO QADARA LAKA [294]

*Qismatda nasib xayr yo sharr bo 'lmish,  
Sa 'y etmayin ul sanga tuyassar bo 'lmish,  
Topmas tag 'ayyur ulcha mukaddar bo 'lmish,  
Yetgay sanga harneki, muqarrar bo 'lmish.*

YAZID US-SADAQATU FIL-UMRI [295]

*Har sadqaki, toleingni maymun aylar,  
Qatrangni havosi durri maknun aylar,  
Jisming uyiga hayot maqrur aylar,  
Ya 'niki, baqou umr afzun aylar.*

YA'MAN UL-XOYIFU IZO VASALA ILA MO XOFAXU [296]

*Xoifg 'aki xavf yuz ziyondin erdi,  
Bal ham anga xonumondin erdi,  
Emin bo 'lur ar xavf anga jondin erdi,  
Chun yetti angaki xavfi ondin erdi.*

YUSIR UL-AMR US-SABURU ILA MURODIHI [297]

*Har kimki falak zulmu inodig 'a yetar,  
Sabr aylagan oxir e 'tiqodig 'a yetar,  
Chun bo 'ldi sabur tengri dodig 'a yetar,  
Sobir kishi oqibat murodig 'a yetar.*

YABLUG' UL-MAR'U BIS-SIDQI MANOZIL AL-KIBORI [298]

*Norostki qoldi xoru zor el yerga,  
O 'lturdi laimu xoksor el yerga,  
Desang netay ahli e 'tibor el yerga,  
Sidq aylaki, yetgaysen kanor el yerga.*

YASUD UL-MAR'U QAVMUHU BIL-INSONI ALAYIM [299]

*Kim elga jafo chohin tomug' zayli qilur,*

*Kavsar suyin o'ziga o'lum sayli qilur,*

*O'z xaylig'a kimki yaxshiliq mayli qilur,*

*Ehson ani bilki, qavm sarxayli qilur.*

YA'S UL-QALBI ROHAT UN-NAFSI [300]

*Istar esang osudliq ish tajrid et,*

*Faqr ichra o'zungni moyili tafrid et.*

*Ko'nglungni zamон bahrasidin navmid et,*

*Nafsingga 'a bu ishni rohibi jovid et.*


YAS'AD UR-RAJULU BIMUSOHABAT IS-SA'IDI [301]

*Ubbod aro bo'lg'on moyil ibodatg'a yetar,*

*Bo'lg'on kishi mustaid ifodatg'a yetar,*

*Xush odat-el ichra yaxshi odatg'a yetar,*

*Kim, kimsa sa'iddin saodatg'a yetar.*



1. ↑ a.: Inson boshidan biror bir on o'tganligi, eslashga loyiq biror narsa sodir bo'lmagan bo'lsin (Qur'oni majid, Sura, Al-insoni, 1-oyat).
2. ↑ a.: o'tdimi (berdimi?)?
3. ↑ a.: O'tmadimi (bermadimi?)?
4. ↑ a.: Men olam markaziman (shahrimdan) va uning eshigi mening ustimda.
5. ↑ a.: Ollohnning kuniga qasam.
6. ↑ a.: Men sendaman, sen mendadursan.
7. ↑ a.: Mamnun til va yolvorishlik bila degilkim, Ollohnning duosi unga va sahabalariga bo'lg'ay, xususan, Siddiq (Abu Bakr) va Faruqqa (Umar) va Zunnurayi (Usmon) va al-Murtazo (Ali)ga ham bo'lgan.
8. ↑ a.: Olloh undan rozi bo'lsin va Olloh yuzini yorlaqasin.
9. ↑ a.: Quyosh va tong nuri bilan qasamyod qilaman (Sura, Al-shams, 1-oyat).
10. ↑ a.: Tun bilan uning zulmatida qasamyod qilaman (Sura, Al-layl, 1-oyat).
11. ↑ a.: Bog'lar ichidan daryolar oqib o'tadi.
12. ↑ a.: Mevalar yetiladi, xurmolar, anorlar o'sadi.
13. ↑ a.: Uning ayblarini Olloh yashirsin.
14. ↑ a.: Odam bolalarini siyladik.
15. ↑ a.: Biz insonni eng yaxshi tuzilish bilan yaratamiz.
16. ↑ Iso payg'ambar – Diniy rivoyatlarga ko'ra uning nafasi o'likni tiriltirar ekan.  
Laqabi Masih.

17. ↑ Solih payg‘ambar – Nuhning o‘g‘li Som farzandlaridan. Navoiy demakchiki, agar inson so‘z so‘zlamasa, Iso bilan uning oti va Solih bilan uning tuyasi orasida farq bo‘larmi edi?!
18. ↑ a.: Insonlar aqlariga yarasha gapiradilar.
19. ↑ a.: Martabalariga loyiq holda.
20. ↑ a.: Shunga o‘xshash surani keltirishlari (ga).
21. ↑ a.: U o‘z xohishi bilan gapirmayapti.
22. ↑ a.: Unga ochilayotgan vaqt kelayapti.
23. ↑ a.: Haqiqatan ham she’rda, hikmat bayonida sehr bor.
24. ↑ a.: Olloh ulardan rozi bo‘lsin!
25. ↑ a.: va ko‘z qorasi yashirin durdek.
26. ↑ a.: Sochma durlar.
27. ↑ a.: Keng bino.
28. ↑ a.: Mohir qo‘mondon.
29. ↑ «Fayz» – so‘zidan abjad hisobida «Nazm ul-javohir» yozilgan 880 – 1485 yil chiqadi.
30. ↑ «Juzv», «daftar», «jung», «bahr» – so‘zлari zamirida Navoiy Husayn Boyqaroning «Risola»sini nazardi tutmoqda.
31. ↑ Mazkur «Risola»ni yozgan shoh – Husayn Boyqarodir.
32. ↑ a.: Men yerga xalifa qilib tayinlayman.
33. ↑ a.: Bir soatlikadolat oltmis yillik ibodatdan yaxshidir.
34. ↑ a.: Haqiqatda Ollohadolat va yaxshilik qilishni buyuradi.
35. ↑ a.: Va faxsh, ifloslik va adolatsizlikni rad etadi.
36. ↑ a.: Va Ollohnинг senga kuchli yordam berishi uchun.
37. ↑ a.: Va ollohnинг azizlarga yordami surasi.
38. ↑ a.: U yerdagi Salsabil atalmish chashmadan.
39. ↑ a.: Aytildiki, ey yer-suvingni yutgil.
40. ↑ Zahir – Zahir Farobiy, mashhur shoir (vaf. 598 – 1201 – 1202, Tabriz). Asli Faryobdan. Yoshligidan ilm-fan, she’r, adabiyot, hikmat, ilmi nujumni o‘rganishga kirishadi. Xuroson Mozandaron, Ozarbayjonga safar qiladi. Qasidalar devoni bor.
41. ↑ Anvariyy – Avhaduddin Ali ibn Muhammad (1105, Abivard 1187, Balx) mashhur fors shoiri. Tus madrasasida tahsil topgan. Ilmi nujum, hikmat, handasa, falsafa va tibbiyot ilmlarini puxta bilgan. Marv va Nishopurda istiqomat qilgan. Anvariyning hajviyalari g‘oyat o‘tkir. Shoirni qasidanavisliqning payg‘ambari deb ta’riflaganlar. 15000 baytli devonida qasida, g‘azal, ruboiy va qit’alar mavjud.
42. ↑ Vassof – Sharafuddin Abdulloh. Mo‘g‘ul sultonlaridan G‘iyosiddin davrida yashagan olim, atoqli tarixnavis.
43. ↑ Tabariy – Muhammad ibn Jorif, fors donishmand tarixchilaridan. U Abu Bakr Xorazmiyning xolavachchasi. «Tarixi Tabariy» iomi bilan mashhur asar muallifi.
44. ↑ Navoiy bu shoir va muarrixlarga Husayn Boyqaroni o‘xhatmoqda.
45. ↑ Asadulloh – Ollohnинг sheri: Hazrat Alining laqabi.
46. ↑ «Nasr ul-laoliy» (sochma la’lu-marvarid, qimmatbaho toshlar). Hazrat Ali qalamiga mansub hikmatlar majmuasi.
47. ↑ Kishining iymoni ahdiga vafo qilishidan bilinadi.

47. ↑ Hazrat Aliga nisbat berilgan hadislarni Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti aspiranti Abulfaiz Saidasqarov tarjimasida izohlar avvalida keltiramiz va minnatdorchilik bildiramiz.
48. ↑ Falokat yetkanda yordamga kelgan kishi – birodaring.
49. ↑ Boylikning izhori – shukrdir.
50. ↑ Bolalarining tarbiya qil – ularga foyda keltirasan.
51. ↑ Kishining odobi uning boyligidan yaxshidir.
52. ↑ Burchni o‘tash – dindandir.
53. ↑ Yomonga yaxshilik qilish bilan uni qaytargan bo‘lasan.
54. ↑ Bu zamonning odamlari ayb qidiruvchilardir.
55. ↑ Ruhning rohati ma‘yuslikdadir.
56. ↑ Muruvvat qiyinchiliklarni to‘sadi.
57. ↑ Ota-onaga mehribonlik – merosdir.
58. ↑ O‘zingga sabrdan keyin zafar kelishini bildirib qo‘y.
59. ↑ Umrning barakasi chiroqli amallardadir.
60. ↑ Mol-dunyo barakasi zakotni ado etishda.
61. ↑ Bu dunyoni oxirat uchun sotib yubor, foyda ko‘rasan.
62. ↑ Kishining Ollohdan qo‘rqib yig‘lashi ko‘zni ravshan qiladi.
63. ↑ Kishining qorni – dushmanidir.
64. ↑ Shanba va payshanba tonglari barakadir.
65. ↑ Insonga balo tildan kelur.
66. ↑ Ezgulik qil, ammo uni minnat qilish bilan yo‘q qilma.
67. ↑ Kishining muloyimligi [ehsondan so‘ng] ikkinchi sovg‘adir.
68. ↑ Ollohga tavakkal qil – shuning o‘zi kifoya.
69. ↑ Baloning kechikishi – iqboldir.
70. ↑ Umring avvalida o‘tgan ishlar xatosini umring oxirida to‘g‘rila.
71. ↑ Kishining nomozda erinchoqlik qilishi – iymonining zaifligidandir.
72. ↑ Yaxshilik bashoratini ber – uni hadya etganday bo‘lasan.
73. ↑ Makruh ishni rad etishda g‘ofillik qilsang, u ko‘payib boraveradi.
74. ↑ Qo‘llarning taom bilan mehribonlik qilishi baraka keltiradi.
75. ↑ Gunohlarni tark etishga g‘ayrat qil.
76. ↑ Kishining kamtarinligi unga hurmat keltiradi.
77. ↑ Uch narsa halokatga olib keladi: baxillik, xudbinlik va takabburlik.
78. ↑ Uch narsa iymondandir: hayo, vafo va sahiylik.
79. ↑ Ulamolar o‘limi dinga rahnadir.
80. ↑ Hirs yetkazgan rahnani faqat tuproq to‘ldiradi.
81. ↑ Hukmonlikadolat bilan mustahkam bo‘ladi.
82. ↑ Oxirat savobi dunyo rohatidan yaxshidir.
83. ↑ Ehson qilsang, uni xokisorlik bilan yana takror et.
84. ↑ Tan ovqat bilan, ruh esa kuy bilan tirikdir.
85. ↑ Kishining beruvchiga rahmati uning ne’matlariga baraka beradi.
86. ↑ Nimaiki topsang, sadaqa qil.
87. ↑ Faqir uchun oz balo ham ko‘pdir.
88. ↑ Kishining husni – muloyimlidadir.
89. ↑ Yomon do‘st – shaytondir.
90. ↑ Botilning umri bir soat, haqiqatniki esa qiyomat soatigachadir.
91. ↑ Kishining hamsuhbati uning o‘zi kabi bo‘ladi.
92. ↑ So‘zning yaxshisi – qisqadir.
93. ↑ Yaxshi hamsuhbat – g‘animatdir.

94. ↑ Berishda ko‘p ber, olayotganda oz bilan qanoatlan.
95. ↑ Kambag‘allar bilan suhbatda bo‘lish, shukrni ko‘paytiradi.
96. ↑ Ulmaydigan narsa – ulug‘dir.
97. ↑ Kishining yumshoq fe‘lli bo‘lishi uning madadkoridir.
98. ↑ Kishilarning bezagi – odobdir.
99. ↑ Kishining hayosi – uning pardasidir.
100.     ↑ Achchiq so‘zdan achchiq ovqat yaxshi.
101.     ↑ Kishining qiziqqonligi uni halokatga boshlaydi.
102.     ↑ Yomonga vafo – haromdir.
103.     ↑ Xulq chiroyliligi – g‘animatdir.
104.     ↑ Hunar – kishining boyligidir.
105.     ↑ Xudodan qo‘rqsang bas, undan boshqasidan omon bo‘lasan.
106.     ↑ Do‘stlarning yaxshilikka boshlagani – yaxshiroqdir.
107.     ↑ Nafsingga qarshi tur – dam olasan.
108.     ↑ Kishining do‘sti – uning diniga dalildir.
109.     ↑ Qalbning xoli bo‘lishi – cho‘ntakning to‘la bo‘lishidan yaxshidir!
110.     ↑ Do‘stning xolisligini uning va’dasiga amal qilishidan bil!
111.     ↑ Xotinning yaxshisi – suyumli va ko‘p tug‘adiganidir.
112.     ↑ Molning Olloh yo‘lida sarf bo‘lgani – yaxshirog‘idir.
113.     ↑ Qalbning shifosi – qazoga rozi bo‘lish.
114.     ↑ Kishiga alam – hirsdan yetadi.
115.     ↑ Kishining ofati – hirsining injiqligidan deb bil.
116.     ↑ Kimsa senga jafo qilsa ham, undan uyalib murosa qil.
117.     ↑ Kishining so‘zi – aqliga dalolatdir.
118.     ↑ Kishining asl ekanligini fe‘li namoyon qiladi.
119.     ↑ Do‘stlarni ko‘rish, xursandchilikka xotima bermaydi.
120.     ↑ Nokaslarning davlati – kishilarning ofati.
121.     ↑ Kishini burchi – mahzun bo‘lish.
122.     ↑ Shohlarning davlati adolat uzradir.
123.     ↑ Baxilning oltini foydasiz toshdan o‘zga narsa emas.
124.     ↑ Jahnga yo‘l berma – oqibatlari maqtaladi.
125.     ↑ Isyon qiluvchini o‘z isyonini halok qiladi.
126.     ↑ Gunohning bittasi ham ko‘p, ibodatning mingtasi ham kamdir.
127.     ↑ Avliyolarni eslash – ilohiy rahmat yog‘diradi.
128.     ↑ Kishining to‘g‘ri yo‘ldan ozishi – ta’madan.
129.     ↑ Podsholarning ovqati labni kuydiradi.
130.     ↑ Faqirlarning eng xori Olloh huzurida azizdir.
131.     ↑ Yoshlikni eslash – hasratdir.
132.     ↑ Tilning ravonligi – boylik egasidir.
133.     ↑ O‘limni eslash – qalb jiilosidir.
134.     ↑ Sevimli kishini ko‘rish – ko‘zni ravshan qiladi.
135.     ↑ Otangga rioyer qil – bolangdan qaytadi.
136.     ↑ Yashashning go‘zalligi – osoyishtalikning mavjudligidadir.
137.     ↑ Ilmning darajasi – sifatidadir.
138.     ↑ Xotirjam bo‘l – rizqingni o‘zi seni topib oladi.
139.     ↑ O‘limning xabarini tug‘ilish beradi.
140.     ↑ Nafsga bezak berma – uni charchatasan.
141.     ↑ Nafsing g‘alaba qilsa, haq yo‘lini tut.
142.     ↑ Kishining mehribonligi aqliga dalolatdir.

143. ↑ Kishilarning vazni – tarozilaridir.
144. ↑ Kishini ziyorat qilish uning sahovatiga qarab bo‘ladi.
145. ↑ Dunyo burchaklari motamlarga to‘ladir.
146. ↑ Do‘stlarni ziyorat qilish muhabbatni oshiradi.
147. ↑ Zaiflarning holidan xabar olish – kamtarlikdandir.
148. ↑ Botiniy husn zohiri yaxshiroqdir.
149. ↑ Avom kishining zohidligi – gumrohlikdir.
150. ↑ Badgumonlik – kibrdandir.
151. ↑ Dunyo bilan faxrlanish – kibrdir.
152. ↑ Yomon xulqdan xalos bo‘lish qiyin.
153. ↑ Kishining ruhiy olamini uning siyrati ochib beradi.
154. ↑ Inson tiliga ehtiyot bo‘lsa salomat bo‘ladi.
155. ↑ Fiqh ulamolari – xalq sarvaridirlar.
156. ↑ Qalban uyg‘oq kishining mast bo‘lishi – xulqlarning yomonidir.
157. ↑ Notavonlarning kurashi shikoyat orqali bo‘ladi.
158. ↑ Tavoze’li kishi – ulug‘ kishidir.
159. ↑ Til sukuti – inson salomatligi.
160. ↑ Ilmning zavoli – maqtanishdadir.
161. ↑ Yomonga yaqin bo‘lgan ish – yomon ishdir.
162. ↑ Jannat talabida belingni mahkam bog‘la.
163. ↑ Boyning baxilligi uning azobidir.
164. ↑ Ko‘p toatdan oz ma‘rifat yaxshi.
165. ↑ Qarilik o‘lim xabarini keltiradi.
166. ↑ Jannatiy bo‘lishni istasang Qur‘on o‘qi.
167. ↑ Ulfatchilik sharti – kulfat yo‘qligidir.
168. ↑ Kishilarning yomonrog‘i – xalqdan o‘zini olib qochuvchisidir.
169. ↑ Kishining to‘g‘ri so‘zlilik fazilati uning najotkoridir.
170. ↑ Badanning sihati – ro‘zadan.
171. ↑ Sabr g‘alaba keltiradi.
172. ↑ Tunda o‘qilgan namoz kunduzga husn bo‘ladi.
173. ↑ Tan sihatligi – sukutdan.
174. ↑ Inson salomatligi – tilga ehtiyot bo‘lishlikda.
175. ↑ Yaxshi kishilar bilan hamsuhbat bo‘lish – yomonlikdan asraydi.
176. ↑ Nodonning sukuti – ayblariga pardadir.
177. ↑ Mehribon bo‘l – hurmatli bo‘lasan.
178. ↑ Dinning salomatligi – xudodan qo‘rqishda; fasodi esa – magirlikdir.
179. ↑ Ollohdan o‘zga kishiga umid bog‘lagan kishi – gumrohdir.
180. ↑ Olloh har bir narsaning rizqiga kafildir.
181. ↑ Do‘sit achitib gapiradi.
182. ↑ Qalb nuri – halol taomdan paydo bo‘ladi.
183. ↑ Til zarbasi – tish og‘rig‘idan kuchliroq.
184. ↑ Yomonga qayishgan kishi – zalolatdadir.
185. ↑ Kimki dinni dunyoga alishtirgan bo‘lsa, yo‘ldan adashibdi.
186. ↑ Qo‘li ochiq bo‘lman kishining yuragi tor bo‘ladi.
187. ↑ Dunyo – qalbi torlar uchungina tordir.
188. ↑ Ollohgaga ishonganning vaqtি chog‘ bo‘ladi.
189. ↑ Ofiyat ila rizqlantirilgan kishi qanday yaxshi!
190. ↑ Umr bo‘yi ibodat – nabiyalar shioridir.
191. ↑ G‘am azobi qisqarganning umri uzun bo‘ladi.

192. ↑ Odob talabida bo‘lish – dunyo talab etishdan avlodir.
193. ↑ «Kabutar – kabutar bilan uchadi, g‘oz – g‘oz bilan».
194. ↑ Qanoatli kishining umri uzun bo‘ladi.
195. ↑ 159.Dushmanga itoat – o‘limdir.
196. ↑ Ollohga toat – g‘animatdir.
197. ↑ Kishi zulm qilsa, o‘zi xor bo‘ladi.
198. ↑ Mazlumning ranj-uqubati zoye’ ketmaydi.
199. ↑ Zolimning zulmi uni halokatga yo‘llaydi.
200. ↑ Mol-dunyoga tashnalik – suvga tashnalikdan kuchliroqdir.
201. ↑ Zolim umrining soyasi qisqa bo‘ladi.
202. ↑ Saxiylikning soyasi keng bo‘ladi.
203. ↑ Bukri kishining soyasi ham egridir.
204. ↑ Qanoat bilan yashasang, shohlikka ham erishasan.
205. ↑ Oliy himmatlik – iymondandir.
206. ↑ Uzun gap – nuqsonli gapdir.
207. ↑ Zolimning oxiri yaxshi bo‘lmaydi.
208. ↑ Aqli dushman – ahmoq do‘stdan yaxshiroqdir.
209. ↑ Ishning qiyini – osoniga eshik bo‘ladi.
210. ↑ Kitoblarni yiqqandan ko‘ra, undagi narsalarni xotirangda saqlaganing yaxshiroq bo‘ladi.
211. ↑ Zolimning uqubati – o‘limining tezkorligidir.
212. ↑ Har bir tundan so‘ng albatta kun keladi.
213. ↑ Sog‘liq – g‘animatdir.
214. ↑ Taqvodordan ham ko‘ra Ollohga tavakkal qiluvchilarining qadri ko‘proqdir.
215. ↑ O‘lim g‘ami – qalbing sevmagan kishi bilan hamsuhbat bo‘lishdan yengilroqdir.
216. ↑ Oqil go‘dak – nodon keksadan yaxshiroqdir.
217. ↑ Yo‘lini yo‘qotgan, o‘zini ham yo‘qotibdi.
218. ↑ Seni yomonlikka boshlagan kishi dushmaningdir.
219. ↑ Kim seni botil ishga yo‘llagan bo‘lsa, seni aldabdi.
220. ↑ To‘g‘ri narsadan jahling chiqishi – qabihlikdan.
221. ↑ Hikmatni his qila olish – mo‘min uchun sovg‘adir.
222. ↑ Din orqali qozonilgan g‘alaba – haqiqiy g‘alabadir.
223. ↑ Kishining fazilati bilan faxrlanishi–asl ekanligi bilan faxrlanishidan avlodir.
224. ↑ Dushmaning ustidan g‘alaba qozonishing oson narsa.
225. ↑ Kimki aqli bo‘lsa – u asl kishidir.
226. ↑ Kimki nafs yomonligidan omon qolgan bo‘lsa, g‘alaba qilibdi.
227. ↑ Narsaning bir kichik parchasi ham uning aslligidan dalolat berishi mumkin.
228. ↑ Kishining erkin va ozod bo‘lishi – to‘g‘ri so‘zliligi sharofatidandir.
229. ↑ Har bir qalbning o‘z tashvishi bor.
230. ↑ Kimki ne‘matga kufr keltirsa – fosid hukmidadir.
231. ↑ Kishining gapi qalbidagini fosh etib qo‘yadi.
232. ↑ Qalbning quvvati – iymon salomatligidandir.
233. ↑ Amal – ibodat qilishni qadrla – shodlik, xushnudlik topasan.
234. ↑ Kishining do‘sti – uning diniga dalildur.
235. ↑ Yomonlarning yaqinida yurish ham zararlidir.

236. ↑ Toshjurak bo‘lish – «to‘qlik» oqibatidir.  
237. ↑ Kishining qadri, birov uni qadralsa bilinadi.  
238. ↑ Ollohning kalomi – qalblarning shifosidir.  
239. ↑ Ne’matga kufr qilish – uni zoyil qiladi.  
240. ↑ Qarilikning o‘zi senga yetarli kasallikdir.  
241. ↑ Hasadgo‘yga uning hasadn [halok bo‘lishi uchun] kifoyadir.  
242. ↑ Ilmning kamoli – muloyimlikdadir.  
243. ↑ Yaxshilik – uzrlik bo‘lish bilan komil bo‘ladi.  
244. ↑ Dunyoning ayblari unda qolmaslik uchun senga yetarli bo‘ladi.  
245. ↑ O‘limni yodga olish g‘ami senga yetarlidir.  
246. ↑ Yumshoq so‘z qalblarni mahbub qiladi.  
247. ↑ So‘zingni yumshoq qil – sevimli bo‘lib qolasan.  
248. ↑ Qarilik yillarini umr yillarim deb hisoblama.  
249. ↑ Ilmli shohga zavol yo‘qdir.  
250. ↑ Kibr bilan shuhrat topib bo‘lmaydi.  
251. ↑ Hasad dushmanligidan boshqa hamma dushmanlikning iloji bor.  
252. ↑ Kimki ko‘p so‘zlabdi – o‘ziga malomatni orttiribdi.  
253. ↑ Tiniq buлоq atrofida hamma odamlar to‘planishadi.  
254. ↑ Himmat darajasi balandning qayg‘u torlari uzun bo‘ladi.  
255. ↑ Yomon bilan hamsuhbat bo‘lish – dengiz safari kabi xatarlidir.  
256. ↑ Sukut saqlagan odam so‘ng nadomat qilmaydi.  
257. ↑ Ilm majlisi – jannat bog‘iga o‘xshaydi.  
258. ↑ Jo‘mardlik majlisi – so‘z qal’asidir.  
259. ↑ Kishining hunari tili ostida bo‘ladi.  
260. ↑ Tunni bedor o‘tkazish mo‘min kishiga nur ato etadi.  
261. ↑ O‘limni unutish – qalbning zanglaganidan dalolatdir.  
262. ↑ Tungi namozlar bilan qabringni munavvar et.  
263. ↑ Sochingga tushgan oq senga o‘limdan xabar beradi.  
264. ↑ Iymon keltirib uxla, uyqung yaxshi bo‘ladi.  
265. ↑ Maqsadga qiyinchilik orqali erishiladi.  
266. ↑ Firoq o‘ti do‘zax o‘tidan kuchliroqdir.  
267. ↑ Badfe’lllik ila keksalik nurini so‘ndirma!  
268. ↑ Yuz sofligi – to‘g‘ri so‘zlikdandir.  
269. ↑ O‘z o‘rnida qilinmagan yaxshilik – zulm bilan barobardir.  
270. ↑ Minnat bilan qilingan sadaqaning gunohi savobidan ko‘proq bo‘ladi.  
271. ↑ Ahmoq yurt boshqarsa, zavolning kelishi tezlashadi.  
272. ↑ Hulqi yomon va xalqiga «huradigan» kishining holiga voy!  
273. ↑ Yomon bilan hamsuhbat bo‘lgandan yolg‘izlik yaxshi.  
274. ↑ Senga nisbatan g‘ofillik qilishgan bo‘lsa, bu sen uchun katta yordam!  
275. ↑ Seni mensimagan kishi – senga yordam beradi.  
276. ↑ Yaxshilarni tark etgan kishining holi voy bo‘ladi!  
277. ↑ Hasadchilarning holiga voy!  
278. ↑ Bolani xudo rizqi bilan beradi.  
279. ↑ Kishining ishi natijasi uning g‘ayratiga qarab bo‘ladi.  
280. ↑ Baxtli odam oxirat g‘amini, baxtsiz odam bu dunyo g‘amini o‘yaydi.  
281. ↑ Kishining xudbinligi uni halok qiladi.  
282. ↑ Nafsingdan qochishing, sherdan qochishingdan ko‘ra ko‘proq foyda beradi.  
283. ↑ Kishining ulug‘ligi uning himmatidan bilinadi.

284. ↑ Hirs bandasi halokat sari ketayotganligini bilmaydi.
285. ↑ Kishining himmati uning qiymatini belgilaydi.
286. ↑ Boringni ko‘rsat, kimligingni aytib beraman.
287. ↑ Iymoni yo‘qning dini ham yo‘qdir.
288. ↑ Muruvvatsiz kimsada din ham yo‘q,
289. ↑ Oqil kishiga faqirlik yo‘qdir.
290. ↑ Hasadgo‘yga rohat yo‘q.
291. ↑ Qanoat qiluvchida g‘am bo‘lmaydi.
292. ↑ Fosiq kishining hurmati bo‘lmaydi.
293. ↑ Fohish kishiga tanbeh kor qilmaydi.
294. ↑ Senga taqdir etilgan narsagina beriladi.
295. ↑ Sadaqa – umrni uzaytiradi.
296. ↑ Nimadan xavfsirab yurgan bo‘lsang, o‘shanga uchraganingdan so‘ng emin bo‘lib qolasan.
297. ↑ Sabr sohibi albatta murodiga yetadi.
298. ↑ Kishi rostgo‘ylik bilan ulug‘lar darajasiga yetadi.
299. ↑ Kim qavmiga yaxshilik qilsa, ularning xojasi bo‘lib qoladi.
300. ↑ Qalb ma’yusligi – jon rohatidir.